

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BOTANIKA KAFEDRASI

“DAK da himoyaga tavsiya etilsin”

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
dekani _____ dots. Xo‘jamqulov B.
“ _____ ” _____ 2012 yil

Rahimova Nigora Hafizovnaning

**5420100-biologiya ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

TANXOZDARYO HAVZASI FLORASI, O‘SIMLIKLAR QOPLAMI

VA ULARNING EKOLOGIK HOLATI.

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruv malakaviy ishi Botanika kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tdi.

№ _____ sonli bayonnoma « _____ » _____ may _____ 2012 yil

QARSHI – 2012 y

MAVZU:TANXOZDARYO HAVZASI FLORASI, O‘SIMLIKLAR
QOPLAMI VA ULARNING EKOLOGIK HOLATI.

REJA:

KIRISH.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING DOLZARBLIGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING ASOSIY MAQSADI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH USLUBI VA MANBASI.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING ILMIY YANGILIGI.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING AMALIY AHAMIYATI.

I BOB QASHQADARYO HAVZASINING JINNIDARYO,
OQSUVDARYOSI, KATTA O‘RADARYO, YAKKABOG‘DARYO VA
G‘UZORDARYOLARNING TABIATI HAQIDA FIZGEOGRAFIK
TASNIF.

1.1 TANXOZDARO DARYOSINING TABIIY GEOGRAFIK O‘RNI VA
SHAROITI.

1.2. TABIIY GEOGRAFIK O‘RNI.

1.3. IQLIMI.

1.4. TUPROG‘I.

II BOB TANXOZDARYOSINING O‘SIMLIKLAR QOPLAMI VA
FLORASI.

2.1.TANXOZDARYO O‘SIMLIKLAR QOPLAMINI O‘RGANISH TARIXI
(ADABIYOTLAR SHARHI).

2.2. TANXOZDARYO O‘SIMLIKLAR QOPLAMIDA TARQALGAN
TURLARNING SISTEMATIK TAHLILI

2.3 TANXOZDARYOSI O‘SIMLIKLAR QOPLAMIDA VA FLORASIDA
UCHRAYDIGAN TURLARNING AYRIM VAKILLARIGA
BIOEKOLOGIK TASNIF

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Kirish.

O'zbekistonda tabiiy holda o'sadigan yuksak o'simliklarning 4230 turi mavjud. Bu o'simliklar mamlakatimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Bu rang-barang yovvoyi o'simliklardan inson sog'ligi manfaati yo'lida oqilona foydalanish va ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish Respublika olimlari va keng jamoatchilik oldidagi eng muhim dolzarb vazifalaridan biridir.

Daryolar yer yuzining qon tomirlari deb yuritiladi. Tanxozdaryo viloyatimizning yirik daryosi bo'lgan Qashqadaryoning bir irmog'i hisoblanadi. Tanxozdaryo o'simliklari xalq va ilmiy sohalarda ishlatiladigan ayrim o'simliklarni tabiiy jamg'armalarga boyligi jihatidan viloyatimiz daryo va ko'llari o'rtasida salmoqli o'rinni egallaydi. Viloyatimiz tumanlari territoriyasida keyingi yillarda qishloq xo'jaligi va sanoat qurilishi ishlarining jadal sur'atda olib borilishi tabiatga, shu jumladan o'simliklarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Qashqadaryo viloyati hududida ko'plab o'simliklar mavjud bo'lib ularni bo'yoqbob, dorivor, ziravor, yem – xashak, alkaloidli, qurilishbob o'simliklar sarasiga kiritish mumkin. Ayniqsa juda kam uchraydigan endem va relekt (qadimgi davr florasiga oid turning ma'lum joylarda qoldiq holida saqlanayotgan) turlar o'sib, sharoit o'zgartirilishi natijasida ular tez orada qurib viloyat hududidan butunlay yo'qolib ketish xavfi tug'ilmoqda. Ekologik muammolarni ilmiy hal etish, kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, uning oqibatlarini anglab yetish va uni bartaraf qilish fan ijodkorlaridan juda katta izlanish va mehnat talab qiladi. Shu jumladan viloyatimizning ekologik muammolarini ijodiy o'rganish, iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirishda, hududning ayrim olingan bo'laklarini ilmiy jihatdan tahlil qilish ekologiyaga, tabiatni muhofaza qilishga, ayniqsa iqtisodiy taraqqiyotga katta foyda keltiradi.

Shuni e'tiborga olib biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda viloyatimizning sersuv daryolardan biri bo'lgan Hisor tog' tizmasining

janubi–gʻarbiy qismida dengiz sathidan 3800-3900 boshlanadigan Tanxozdaryo oʻsimliklar olami haqida imkon qadar fikr yuritishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi Tanxozdaryo hududining nabotot genofondi jihatidan nafaqat viloyatimizda balki Respublikamizda ham oʻziga xos mavqeiga ega. Daryoda uncha katta hududni ishgʻol qilmasada, oʻsimlik dunyosiga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Tanxozdaryo florasida har xil darmondorilarga ega boʻlgan oziqbop, dorivor, rang boʻyoq beruvchi, yem – xashak umuman xalq xoʻjaligining deyarli barcha tarmoqlari uchun kerak boʻladigan oʻsimlik turlari mavjud. Daryoga tegishli boʻlgan barcha resurslardan keyingi yillarda tinimsiz, hech qanday ilmiy rejaga asoslanmagan holda ayovsiz foydalanish va xoʻjaliklarga oʻzlashtirish natijasida tabiiy muvozanatni buzilishiga olib kelmoqda.

Ayniqsa, yaylov sifatida notoʻgʻri foydalanish, shaxsiy xoʻjalikning chorva mollarining koʻpayishi kabi sabablar ekologik muvozanatni buzilishiga sabab boʻlmoqda. Daryo atrofida oʻsimlik qatlamini oʻzgarishiga sabab boʻlayotgan asosiy omil bu – antropogen omil, yaʼni insonning koʻrsatayotgan taʼsiri va shu qatorda yogʻingarchilik moʻl boʻlgan vaqtlarda sel kelishidir.

Ishning dolzarbligi shundaki Tanxozdaryo oʻsimliklar qoplamini imkon darajasida oʻrganishga qaratilgan, hamda oʻsimlik resurslarini tabiiy holicha saqlab qolish, ularga taʼsir etuvchi omillarni oʻrganish, uni tahlil qilishdan iborat.

Umuman olganda ushbu ish Tanxozdaryo oʻsimliklar qoplamini ham sifat jihatdan ham son jihatdan tahlil qilib oʻrganishga qaratilgan. Tanlangan mavzumiz xalq xoʻjaligini, qishloq xoʻjaligini iqtisodiy holati hamda ekologik holatini yaxshilashga qaratilganligi sababli shak – shubhasiz dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi Tanxozdaryo oʻsimliklar qoplamini hozirgi holatini har tomonlama oʻrganish, floristik tarkibini tahlil

qilish va ularning dinamik o'zgarishini tasvirlab berishdan iborat. Yuqorida ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ishlar rejalashtirildi va bajarildi;

-o'simliklar qoplami o'rganilayotgan mintaqaning tabiiy-geografik holati: relyefi, geomorfologik tuzilishi, dengiz sathidan balandligi, tuproq tiplari, ekologik omillar, iqlimi kabi holatlarini adabiyotlardan foydalanib o'rganish;

-ushbu tabiiy geografik holatni o'simliklar qoplamiga ijobiy va salbiy ta'sirini aniqlash va tahlil qilish;

-daryoning floristik tarkibi va tuzilishini aniqlash va o'simlik qoplamini o'rganish;

-daryoning o'simlik qoplamiga ta'sir etuvchi omillarning xillari va ularning ta'sir darajasini aniqlash;

-o'simliklar qoplamini xalq xo'jaligida qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatish;

Bitiruv malakaviy ishni bajarish uslubi va manbasi. Kuzatuv tadqiqot ishlari Tanxozdaryoning boshlang'ich qismidan toki Qashqadaryoga kelib quyilishgacha bo'lgan qismlarida olib borildi. Ishni bajarishda ommabop va keng qo'llanilgan usullardan foydalanildi. Mintaqada tarqalgan turlarni aniqlash va o'rganishga olti jildli "Flora Uzbekistana" (1941-62) kitobidan foydalanildi.

O'simliklarni aniqlash va sistematik birikmalarni ko'rsatishda G'.Hamidov, M.Nabiyev, T.Odilovlarning "O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi" (1987) kitobidan foydalanildi. O'simliklar qoplamini va bioekologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilishda S. Mustafayev, A.Xolmurodovlarning "O'simliklar bioekologiyasi" (1992) kitobi qo'llanildi.

Botanikaga oid nomenklaturalarni, zamonaviy sistematik birliklar va o'zgarishlarni S. Sahobiddinov, S. Mustafayev, O'. Pratorov, T. Odilov, M. Nabiyevlarning asarlaridan foydalanib, o'rganib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, daryoning o'simliklari birinchi marta

alohida bitta hudud sifatida o'rganilib, tahlil qilib chiqildi. Kuzatuvlar natijasida **28** ta oilaga mansub bo'lgan o'simliklarning **83** turi o'rganildi va ularning ayrimlarining bioekologik xususiyatlari kuzatildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bizning kuzatish va tavsiyalarimizga ko'ra tabiatni muhofaza qilish xodimlari qishloq xo'jaligi xodimlari, chorvadorlar, o'z ish faoliyatlari davomida foydalanishlari mumkin. Shuningdek, daryoni hududida olib boriladigan ishlarni rejali boshqarishda qo'llaydilar. Ayniqsa, chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarini boqishda yaylovlardan tartibli foydalanish uchun ushbu tavsiyalardan foydalanishi mumkin.

Ushbu bitiruv malakaviy ishdan o'rta maktablarda, kollej va akademik litseylarda biologiya darslarini o'tishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Shuningdek floristik yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib boruvchilar uchun Tanxozdaryo o'simliklar qoplami uchun dastlabki reper manba bo'lib xizmat qiladi.

I BOB QASHQADARYO HAVZASINING JINNIDARYO, OQSUVDARYOSI, KATTA O‘RADARYO, YAKKABOG‘DARYO VA G‘UZORDARYOLARNING TABIATI HAQIDA FIZGEOGRAFIK TASNIF.

Qashqadaryo viloyati hududida Respublikamiz nisbatan yirik tizimlaridan biri bo‘lgan Qashqadaryo havzasida joylashgan. Suv yig‘ilish maydoni 8780 kv. km. bo‘lgan Qashqadaryo havzasi shimol va shimoliy–sharqda Zarafshon, sharqda Hisor tog‘ tizmalarining g‘arbiy tarmoqlari bilan o‘ralgan bo‘lib, g‘arbda u Qarshi cho‘li bilan tutashib ketgan. Qashqadaryo havzasi to‘rini Qashqadaryo va uning barcha tarmoqlari tashkil etadi.

Havzaning eng uzun daryosi Qashqadaryo (332 km) bo‘lib u Zarafshon tizmasi g‘arbiy tarmog‘ining janubiy yonbag‘ridan 3000 m balandlikda boshlanadi. Yuqorida oqimida u plato bo‘ylab, chuqur va tor vodiyyda oqadi. Qashqadaryo daryosi irmog‘i kelib qo‘shilgandan keyin vodiyy biroz kengayadi, uning eni 100-200m ga yetadi. Shu yerdan boshlab daryoda qayir paydo bo‘ladi. Dug‘oba qishlog‘idan o‘tgach, daryo nisbatan keng vodiyy hosil qilib oqadi. Tog‘lardan chiqqandan so‘ng Qashqadaryoga chap tomondan Hisor tizmasining shimoli–g‘arbiy chegarasidan g‘arbiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan sersuv irmog‘i Tanxozdaryo qo‘yilsa, bundan tashqari Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog‘daryo, G‘uzordaryo kabi irmoqlari ham daryo suvini ko‘payishiga sababchi bo‘ladi.

Jinnidaryo–Qashqadaryoning nisbatan sersuv irmoqlaridan biri bo‘lib, ushbu daryo Aqota (2918 m) hamda Shertog‘ (2696 m) cho‘qqilari orasidagi daradan boshlanadi. Jinnidaryoning uzunligi 61 km, bo‘lib suv yig‘iladigan havzasining maydoni 367 km²ni tashkil etadi.

Nushkent qishlog‘idan yuqoriroqda Qashqadaryoga uning eng sersuv irmog‘i–Oqsuvdaryosi qo‘shiladi. Bu daryoning uzunligi 115 km.dan iborat. Suv yig‘adigan maydoni esa 1050 km² bo‘lib, Severtsev va Botirboy muzliklaridan boshlanadigan ikki daryo Xonaqa va Botirboy daryolarining qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Daryo o‘zining yuqori oqimida tog‘lar orasidan oqib o‘tadi. Bu yerda mavjud tog‘larning dengiz sathidan balandligi

4100-4300 m ga yetadi. Daryo havzasining janubiy yonbag'irlari daryo irmoqlarining chuqur vodiylari tomonidan parchalangan. Buning asosiy sababi daryo havzasiga chap tomondan uzunligi 10-24 km bo'lgan to'rtta irmoqlar Suvtushar, Tamshush, Qizilimchak, G'ilon kabilarning kelib qo'shilishidir.

Oqsuvdaryosidan 13 km quyiyoqda Tanxoz qo'rg'onchasi yaqinida Qashqadaryoga Tanxozdaryo kelib qo'shiladi. Bu daryo Hisor tizmasining janubi-g'arbiy qismida 3500 m balandlikda joylashgan G'oziko'ldan boshlanadi. Tanxozdaryosining uzunligi 104 km bo'lib, suv yig'adigan havzasining maydoni 459 kv. km. dir. Suvning ko'pligi jihatidan havzaning ikkinchi daryosi bo'lgan Yakkabog'daryo bo'lib, uzunligi 108 km, suv yig'adigan havzaning maydoni 1060 kv. km. U Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida 4000 m balandlikda Qizilsuv daryosi nomi bilan Qashqadaryoga yetmasdan ikki tarmoqqa bo'linib ketadi: bu tarmoqlardan biri Qarabog' nomi bilan g'arbga tomon oqadi va uning suvlari sug'orish uchun sarflanadi. Ikkinchi tarmoq esa Qizilsuv nomi bilan shimoli-g'arb tomonga oqib, Tanxozdaryosiga va u orqali Qashqadaryoga quyiladi.

Qashqadaryoning oxirgi chap irmog'i G'uzordaryodir. Uning uzunligi 86 km, havzasining maydoni 3220 kv. km. G'uzordaryo Katta O'radaryo va Kichik O'radaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi, quyi oqimda u Qorasuv deb ataladi.

Katta O'radaryoning uzunligi 113 km, havzasining maydoni 1400 kv. km. Chaqchar va Yakkabog' tog'lari tushadigan Xarrqush davoni yaqinida dengiz sathidan 4348m balandlikdan boshlanadi va yuqori oqimida Egrisuv nomi bilan oqadi. Kichik O'radaryo uzunligi 117 km, havzasining maydoni 1660 kv. km. esa Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmog'larida dengiz sathidan 2000–2500 m balandlikdan boshlanadi. Kichik O'radaryo ham katta O'radaryo kabi asosan tog'lar orasida oqib o'tadi.

Yakkabog'daryo va G'uzordaryo oralig'ida tog'dan tushishi bilan sug'orishga olinadigan Langar daryosi bor.

Qashqadaryosining chap irmoqlari yuqori oqimida ko'p joylarda tez oqadigan tog' daryolaridir. Tog'lardan tekislikka chiqqach, ularning vodiysi kengayadi va eni 300–400 m gacha bo'lgan qayirli o'zanlarda oqadi.

Qashqadaryo havzasining o'ng sohilida yirik irmoqlar yo'q. Ular Qoratepa tizmasining janubiy yonbag'irlaridan oqib tushadi, suv yig'adigan maydoni katta bo'lmaydi, ko'pincha soylar deb ataladigan kichik daryolardir. Bu soylar birlashib to'rtta havzani–Sho'robsoy, Makridsoy, Oyoqchisoy va Qalmoqsoy havzalarini hosil qiladi. G'uzordaryo Qashqadaryoning so'nggi irmog'idir. Qashqadaryo, Maymanoq va Qamashi deb nomlangan tarmoqlarga bo'linib, ularning o'zanlari deyarli suvsiz qolganligidan ko'p o'tmasdan Qarshi cho'lining qumlari orasida tugab ketadi.

V. L. Shults va L. I. Shalatova Qashqadaryo havzasi daryolarini to'yinish xususiyatlariga ko'ra 3 guruhga, ya'ni qor–muzlik, qor va qor–yomg'ir suvi bilan to'yinadigan daryolarga ajratadi.

Qor–muzlik suvi bilan to'yinadigan daryolarga Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo va Oqsuvdaryosi mansub bo'lib, ular asosiy suvni havzasida to'plangan qor suvidan oladi, muzlik suvi esa ikkinchi o'rinda turadi. Bu daryolar, muzliklar va qorlar mintaqasida joylashgan bo'lib, suv yig'ilish maydonining o'rtacha balandligi 3000 m dan pastda. Yakkabog'daryosining suv yig'ilish maydonining o'rtacha balandligi dengiz sathidan 2702 m, Oqsuv daryosiniki 2444 m, Tanxozdaryoniki esa 2170 m.

Yakkabog'daryo, Oqsuvdaryosi va Tanxozdaryoning suv yig'ilish maydonlarining eng yuqori qismlarida 60 ga yaqin muzliklar bo'lib, ularning umumiy maydoni 20,3 kv. km. ni tashkil etadi. Qashqadaryo havzasining eng yirik muzliklari hisoblangan. Severtsov muzligi (1,4 kv. km.) va Botirboy muzligi (1,3 kv. km.) Oqsuvdaryosining suv yig'ilish maydonida joylashgan. Qor–muzlik suvi bilan to'yinadigan Yakkabog'daryo, Oqsuvdaryosi va Tanxozdaryoda to'lin suv davri Qashqadaryo havzasining boshqa daryolariga nisbatan eng kech kuzatiladi, ayni paytda bu daryolar havzasining eng sersuv daryolari hisoblanadi. Har uchala daryoda ham eng ko'p o'rtacha oylik

sarflari asosan iyun oyga, eng kam suv sarflari esa dekabr-yanvar oylariga to'g'ri keladi. Bu daryolarda oqimning yil davomida taqsimlanishi juda notekis bo'ladi. Masalan, mart, iyun davrida Oqsuvdaryosida yillik oqimning 49.2% ni Yakkabog'daryoda, 61.6 % ni va Tanxozdaryoda 63.6 % suvi oqib o'tadi; iyul, sentabr davridagi oqim esa Oqsuvdaryosida oqadigan suvning 35.5 % ni, Yakkabog'daryoda 28.1 % ni va Tanxozdaryosida esa 25% ni tashkil etadi. Qor suvi bilan to'yinadigan daryolarga suv yig'ilish maydonining o'rtacha balandligi 1.823 m ga teng bo'lgan Qashqadaryo kiradi.

Jinnidaryo, Qorasuv, Turnabuloq, Langar va G'uzordaryolari qor yomg'ir suvlari bilan to'yinadigan daryolardir. Jinnidaryoning suv yig'ilish maydonining o'rtacha dengiz sathidan balandligi 1.573 metr, G'uzordaryoniki esa 1.532 metrga teng. Suv yig'ilish havzalari past sathda joylashganligi va erigan qor suvlaridan to'yinganligi sababli bu daryolarda o'rtacha oylik suv sarflari aprel oyida kuzatiladi. Bu daryolarda yillik oqimning 4.4 – 14 % ni, iyun-sentabr oylarida va 56-69%, mart-iyun oyida to'g'ri keladi. Jinnidaryoda mart-iyun oyida qorlarning erishi va yomg'irlarning ko'p yog'ishi tufayli yillik oqimning 68.3 % suvi oqib o'tadi. Iyul-sentabr oylarida esa asosan yer osti suvlaridan to'yinganligi sababli bu davrga yillik oqimning atigi 4.4 foiziga to'g'ri keladi.

Jinnidaryoning o'rtacha ko'p yillik sarfi (Palandara qishlog'i yonida) 1.50 m- 3/ sek va o'rtacha oqim moduli 4.2 l/sek. kv. km. Suv yig'ilishi maydoni juda past va uning nam keltiruvchi havo massalariga nisbatan ancha noqulay joylashganligi sababli G'uzordaryo havzasida juda kam miqdorda oqim hosil bo'ladi. Yillik oqim yog'in miqdoriga bog'liq holda yil sayin o'zgarib turadi. Bu daryoda yillik oqimning 63.9 % mart-iyun oylariga, 14,7% iyun-sentabr oylariga to'g'ri keladi.

Qashqadaryoning o'rtacha yillik suv sarfi 5.60 m – 3/ sek va o'rtacha oqim moduli 12 l– sek. kv. km. Jinnidaryoniki 1.50 m – 3/ sek oqim moduli 4.2 l– sek. kv. km. Oqsuvdaryosiniki esa 12.30 m – 3/ sek va 14.6 l– sek. kv.

km. Tanxozdaryoning bu ko'rsatkichlari 4.23 m – 3/ sek va 10.1 l-sek. kv. km. Yakkabog'daryoning bu ko'rsatkichlari 6.73 m – 3/ sek va 13.4 l-sek. kv. km. G'uzordaryoniki esa 5.90 m – 3/ sek va 1.9 l-sek. kv. km. Qashqadaryo va uning asosiy irmoqlari yillik oqimining katta qismi 60% ko'p bolib, mart-iyun oylariga, qishloq xo'jalik ekinlari vegitatsiya davrining sug'orish talab qilinadigan iyul-avgust oylariga esa 11-20% ga to'g'ri keladi. Qashqadaryo havzasining tog'li qismida hammasi bo'lib bir yilda 1.6 mlrd m 3 ga yaqin miqdorda oqim hosil bo'ladi. Daryolarning suvlarida yozda ekin ekiladigan maydonlarni sug'orish maqsadida bahorgi toshqin suvlarini to'playdigan 13 ta suv ombori qurilgan.

1.1 TANXOZDARYO DARYOSINING TABIIY GEOGRAFIK O'RN VA SHAROITI.

Tanxozdaryoning uzunligi 104 km bo'lib, havzasining maydoni 459 km ni tashkil etadi. Bu daryo dengiz sathidan 3800-3900 m. balandlikda Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy qismida boshlanadi. Tanxozdaryo o'z suvini doimiy muzliklar va qorlarni erishi hamda yomg'ir va chashma-buloqlari suvlari hisobidan to'yinadi. Daryoning havzasi Beshnov tog' yonbag'irlari orasidan o'tib yaylov, tog', adir, tog' oldi mintaqalarini ishg'ol etadi. Daryo o'z oqimi bo'ylab juda ko'plab aholi yashaydigan joydagi sug'oriladigan maydonlarni suv bilan ta'minlash uchun Tanxozdaryosi o'zani bo'ylab katta gidrotexnik inshootlar-ko'priklar, Qatag'on, Chaqar gidrouzellari joylashgan bo'lib, xo'jaliklararo kanallar va ichki xo'jalik kanallariga suv chiqarish uchun xizmat qiladi. Tanxozdaryosidan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda ham foydalanib Shahrisabz tumanidan 5360 gektar paxta, g'alla, bog'-tokzorlar, boshqa ekin maydonlari va tomorqa yerlarini sug'oradi. Havza o'zining turli-tuman ko'rinishga ega bo'lishi bilan boshqa yerlardan tubdan farq qiladi. Daryo Shahrisabz tumanini Hisor, Chopik qishlog'i, Hazara, G'. Boboyorov, A. Temur va Navoiy xo'jaliklari hududlaridan o'tib Shahrisabz tumani bilan Chiroqchi tumani o'rtasidagi Tanxoz qo'rg'onchasi yaqinida Qashqadaryo daryosiga qo'shilib ketadi.

Geologik tuzilishi.

Tanxozdaryosi havzasining hududi viloyatning barcha tog'li qismi singari relyefi pastdan yuqoriga qarab ko'tarilib boradi. Bu 4 ta geomorfologik mintaqalar bir-biridan umumiy landshafti, relyefi, gidrometrik sharoitiga ko'ra tuproq va o'simlik qoplamlarining o'zgarib borishi bilan farqlanadi.

Tanxozdaryoda akademik Q.Z.Zokirov (1978-1984) tavsiya etgan Markaziy Osiyoga xos bo'lgan mintaqalar mavjud:

Cho'l-dengiz sathidan 250-600 m balandlik;

adir–dengiz sathidan 500–600 va 1200–1600 m balandlik;
tog‘–dengiz sathidan 1200–1600 va 2800–2900 m balandlik;
yaylov–dengiz sathidan 2500–3000 m dan yuqori.

Tanxozdaryosi havzasi geomorfologik va geologik tuzulishiga ko‘ra 3 ta mintaqani o‘z ichiga oladi:



Adir. Bu yerlarda asosan uncha baland bo‘lmagan qir va tepaliklardan iborat bo‘lgan to‘lqinsimon relyef mavjud. Bu maydonlar to‘rtlamchi davrda hosil bo‘lgan madaniy landshaftning asosini tashkil etadi. Ushbu zonaning asosiy o‘simliklari rang (*Carex pachystylus* Gay.) va qo‘ng‘irboshdan (*Poa bulbosa* L.) iborat. Ulardan tashqari, tuproq sharoitlariga bog‘liq holda qo‘ziquloq (*Phlomis thapsoides* Bge.), oqquray (*Psoralea drupacea* Bge.), karrak (*Cousinia microcarpa* Boiss.), cho‘lyalpiz (*Ziziphora tenuior* L.), mingbosh (*Convolvulus subhirsutus* Rgl. et Schmalh.), chitir (*Malcolmia hispida* Litv.) va boshqa o‘simliklar o‘sadi. Toshloq joylarda yovshan (*Artemisia diffusa* H. Krasch.), sho‘rlangan tuproqli yerlarda bir yillik sho‘ralar (*Chenopodeta*) uchraydi.

Adir mintaqasi o'simlik dunyosiga boyligi hamda dehqonchilik va chorvachilik uchun qulayligi bilan ajralib turadi.



Tog'. Tog'ning yuqori qismida ayniqsa daralarda katta–katta xarsang toshlar, qoyalar, shag'al ko'chkilar, toshlar ko'plab uchrab, o'simliklar turining tarqalishi jihatidan ancha kambag'al. Bu yerlarda faqatgina buta o'simliklar uchrashi kuzatiladi. Tog' zonasining o'simliklari bug'doyiq, shuvoq, chalov, betaga, butali va daraxtli formatsiyalardan iborat bo'lib, ular chala dashtlar va har xil o'tli quruq dashtlarni hosil qiladi.

Tog' zonasining daraxt va buta o'simliklari tikanli butazorlarni, archazorlarni va bargini to'kadigan tog' o'rmonlari va butazorlarini hosil qiladi.

Tikanli butalar tog'larning quyi va o'rtacha balandliklarida tarqalgan bo'lib, ularga na'matak (*Rosa maracandica* Bge.), bodomcha (*Amygdalus spinosissima* Bge.), uchqat (*Lonicera nummulariifolia* J. et Sp.), zirk (*Berberis integerrima* Bge.), olma (*Malus domestica* Borkh.), jiya (*Elaeagnus orientalis* L.) va boshqa tikanli butalar kiradi. Tikanli

butalarning pastki yarusida yo‘ng‘ichqa (*Medicago sativa* L.), esparset (*Onobrychis vicifolia* Scop.), oqquray (*Psoralea drupacea* Bge.), taktak (*Hordeum bulbosum* L.), qiltiq (*Taeniatherum crinitum* (Schreb.) Nevski) va boshqa o‘simliklar tarqalgan.

Daryo atrofida qisman archazorlar tarqalgan. O‘rikarcha (*Juniperus turkestanica* Kom.) o‘sadi. Bu archazorlarning pastki yarusida butalardan — uchqat (*Lonicera nummulariifolia* J. et Sp.), zarang (*Acer semenovii* Rgl.), na‘matak (*Rosa maracandica* Bge.), o‘tsimon o‘simliklardan esa taroqbosh (*Bromus danthoniae* Trin.), lola (*Tulipa greigii* Rgl.) va boshqali efemerlar o‘sadi.

Bunday archazorlar, ayniqsa, Tanxozdaryoning yuqori qismida ancha katta maydonlarda tarqalgan. Ularning quyi yarusida zirk (*Berberis integerrima* Bge.) va bodom (*Amygdalus bucharica* Korsh.) butalari, kiyiko‘t (*Ziziphora pedicellata* Pazij.), zira (*Bunium persicum* (Boiss.) K. Pol.), tog‘piyoz (*Allium pskemense* B. Fedtsch.), shirach (*Eremurus regelii* Vved.) va boshqalar o‘sadi.



Yaylov. Bu mintaqa Tanxozdaryo havzasining boshlanishidagi G'oziko'lidan boshlansada bular atrofida qisman muzlik doimiy qor bo'lib, asosan yoz oylarida chorva mollari uchun yaylov vazifasini o'taydi. Bu yerlarning relyefi kuchli parchalangan. Ayrim joylarda muzliklar uchraydi. 3-4 m qalinlikdagi qor qoplami hosil bo'ladi. Zonaning ancha maydoni toshloqlardan iborat. O'simliklarning vegetatsiya davri 50-110 kundan oshmaydi. Bu yerdagi o'simliklar qoplamini, asosan subalp va alp o'tloqlari tashkil etadi. Subalp o'tloqlarida yovvoyi suli (*Avena trichophylla* C. Koch.), mushukquyruq (*Alopecurus pratensis* L.) va boshqa o'simliklar o'sadi. Erbahosi (*Gentiana olivieri* Gris.), qoqio't (*Taraxacum officinale* Web.), binafsha (*Viola isopetala* Juz.), chuchmoma (*Ixiolirion tataricum* (Pall.) Herb.) va yostiqlimon o'simliklar alp o'tloqlarining asosini tashkil etadi.



Iqlimi. Havzaning iqlimi cho‘l zonasida joylashgan tumanlar hududidan anchagina farq qiladi. Iqlimi Respublikamiz iqlimi kabi keskin kontinental. Shuning uchun ham bu hududda sutkalik va mavsumiy ob–havo doimiy o‘zgarib turadi.

Havzaning asosiy maydoni tog‘ zonasida joylashganligi uchun ham qishi sovuq, yozi esa adir mintaqasida biroz yuqori bo‘ladi. Yog‘ingarchilik asosan, bahor, qish va kuz oylarida bo‘lib yaylov mintaqasida ba’zi yillari tog‘

mintaqasiga yoz oylarida ham yomg'ir yog'adi. Havza hududining iqlimiy xususiyatlarining har xil bo'lishi o'simliklar qoplamining turli-tuman bo'lishiga olib keladi.

Tuproq'i. Havza tuproqlari tarkibi va tuzilishiga ko'ra adir va tog' tuproqlari guruhiga kiritiladi. Tuproqlarning tarqalishi va tarkibi havza o'simliklari uchun asosiy omil hisoblanadi. Tog'da bo'z tuproq tarqalgan joylarning gidrometrik sharoitlari va relyefi obikor dehqonchilik uchun noqulay bo'lib bu yerlarda lalmi ekinlar yetishtiriladi. Tog' oldi chala cho'l zonasida bo'z tuproqlardan tashqari daryo vodiylarining allyuvial yotqiziqli terrasalarida va prolyuvial–allyuvial yotqiziqlaridan tashkil topgan tekisliklarda tuproqlarning gidromorf qatoriga mansub bo'lgan o'tloq, botqoq–o'tloq va botqoq tuproqlar uchraydi. Oqsuvdaryo, Tanxozdaryo, Yakkabog'daryolarning sizot suvlari yuzaga yaqin joylashgan terrasalarda shu xildagi tuproq uchraydi. Bu tuproqlar deyarli hamma joyda o'zlashtirilgan.

II BOB TANXOZDARYOSINING O'SIMLIKLAR QOPLAMI VA FLORASI.

2.1. Tanxozdaryo o'simliklar qoplamini o'rganish tarixi (adabiyotlar sharhi).

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonda o'simliklar olami to'liq o'rganilmagan hududlardan biridir. Viloyatimizning tabiati, iqlimi, o'simliklar va hayvonot olami boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Vohada hali to'liq o'rganilmagan, noyob, endem va reлект turlarning hozirgi kunga qadar saqlanib qolganligi viloyat florasining o'ziga xosligidandir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu o'lkada dengiz sathidan 320-400 m dan yuqori bo'lmagan cho'l zonasi o'simliklari bilan dengiz sathidan 4100 m balandlikda joylashgan yaylov zonasi o'simliklari iqlim va ob-havo sharoitlarida bir-biridan keskin farq qilganligi sababli nihoyatda turli-tumandir. Cho'l zonasida psammofit, galofit turlar floraning asosiy qismini tashkil qilsa, yaylov zonasida floraning asosiy qismini tog' cho'qqilaridagi toshloqlarda uchraydigan kriptofitlar, botqoqliklarda uchraydigan gigrofit va o'rtacha namlik hamda o'rmonlar va butazorlar soyasi mavjud bo'lgan joylarda uchraydigan mezofit turlarning keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin.

Binobarin, tarixiy taraqqiyot davomida muhit sharoitlariga asta-sekin moslasha borishi natijasida bu o'lkada avtoxiton flora bunyodga kelganligini haqida ma'lumotlari mavjud [I. T. Vasilchenko (1954 y.), I. I. Granitov (1959 y.), S. M. Mustafayev (1974, 1981 y.)].

Viloyat florasida 1200 ga yaqin yovvoyi holda o'sadigan o'simlik turlaridan 74 turi endem — faqat shu o'lkada uchraydigan o'simliklar ekanligi fikrimizning dalilidir. Yovvoyi murut, olma, anor, anjir, astragallardan yovvoyi beda, arpa va bug'doy turlarining asosiy vatani Qashqadaryo ekanligi haqida ma'lumotlar bor [I.T.Vasilchenko (1961, 1975 y.), I. I. Granitov (1959 y.), Q. Z. Zokirov (1951, 1955 y.), S. M. Mustafayev (1974, 1983 y.)]. Qashqadaryo florasining xuddi shu xususiyati keyingi 150-200 yil davomida O'rta Osiyo va chet el botaniklarini qiziqtirib kelgan. Bu

o'lka o'simliklarini 1812 yilda Zarafshon vodiysi bo'ylab ekspeditsiyalar tashkil qilgan Borshov Zarafshon vodiysining o'simliklar olamini, Taxtaqoracha dovoni orqali Kitob, Shahrisabz va Qarshi cho'lini o'rgangan. S. I. Kudryoshev 1941-1945 yillarda G'uzor o'simliklarini, 1951 yilda Shahrisabz mevali daraxtlarini o'rgangan. 1939 yilda Qarshi cho'li o'simliklarini akademik Q. Z. Zokirov o'rganishga muvaffaq bo'lgan. Qashqadaryo viloyatiga ko'plab ekspeditsiyalar tashkil qilgan olim O. H. Hasanov ishlarida biz yovvoyi bedalar haqida ko'plab ma'lumotlar bilan tanishamiz. Qashqadaryo viloyati o'simliklar olamining balandlik zonolari bo'ylab tarqalishini I. I. Granitov (1959 y.) o'rgangan. Qashqadaryo viloyatining dukkakli o'simliklari 1974-1990 yillarda ularni o'rgangan S. M. Mustafayev (1981-1989 y.). Qashqadaryo viloyat hududidagi archazorlarni B. Xo'jamqulov (1989-2005) yillarda o'rgangani ishlaridan bizlarga ma'lum.

Ammo Qashqadaryo viloyatining xom-ashyo va Tanxozdaryosi o'simliklari haqidagi ma'lumotlar deyarli yo'q. Shuni inobatga olib, 2010-2012 yillarda Tanxozdaryosi florasida va o'simliklar qoplamida tarqalgan o'simliklarni o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu yillar mobaynida Tanxozdaryoda tarqalgan o'simliklarning floristik tarkibi, hayot shakli, geografik tarqalishi, fitotsenologiyosi, o'simlik turlarining kimyoviy tarkibini Botanika kafedrası tomonidan tashkil qilingan ekspeditsiyalarda ishtirok etish va adabiyotlarni tahlil qilish natijasida o'rganishga muvaffaq bo'ldik.

2.2. Tanxozdaryo o'simliklar qoplamida tarqalgan turlarning sistematik tahlili

O'simliklar dunyosining paydo bo'lishi tarixi ona zamin yerning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Yerning paydo bo'lgandan toki hozirgi zamongacha qancha vaqt era, davr, asr va yillar o'tdi. Yerning taxminan 4,5-7 mlrd yil ilgari paydo bo'lgan deb hisoblashadi. Shu vaqt ichida unda necha minglab o'simlik turlari va hayvonlar turlari yashab o'tib, qirilib ketdi. Hozirgi kunga kelib yer yuzasidagi o'simlik turlarining soni 500 mingdan ortiqroq hisoblanadi. Yer kurrasida tarqalgan o'simliklar turli-tuman bo'lib, ular orasida suvo'tlar, bakteriyalar, zamburug'lar, urug'li o'simliklar, jumladan ochiq urug'li va yopiq urug'lilardir. Bakteriyalar va zamburug'lar tuban o'simliklar bo'lib, ular geterotrof organizmlar toifasiga kiradi. Qolgan o'simliklar yashil o'simliklar bo'lib, ular o'zlari oziqlanishi bilan birga yer yuzasidagi hayotning davomiyligini ta'minlaydi.

Markaziy Osiyo o'zining ikki yirik daryosi Amudaryo va Sirdaryoni Pomir–Oloy, Tyanshan, Zarafshon, Turkiston va Hisor tog'lari va Qizilqum, Qoraqum cho'llari, Turon past tekisliklari bilan dunyoga mashhur. Markaziy Osiyoda hozirgi kunda 8000 ga yaqin o'simlik turi uchraydi. Bu o'simliklar uning cho'llarida, adirlarida, tog'larida yaylovlarida, ko'llarida daryo va suv havzalarida o'sib o'zidan nasl qoldirib o'z hayotini davom ettirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi yer maydoni 447.4 ming km kv bo'lgan terrioriyani ishg'ol etadi. Respublikamiz shimolida va shimoli–sharqda Qirg'iziston janubida Tojikiston va Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, g'arbda Turkmaniston davlatlari bilan chegaradosh. O'zbekistonni xaritasiga nazar tashlasak uning yer tuzilishi juda notekis ekanligini ko'rishimiz mumkin. L. N. Babushkinining ta'kidlashicha O'zbekiston iqlimi keskin kontinental. O'zbekistonda yilning to'rt faslini kuzatish mumkin. Bahor, yoz, kuz, qish aniq yillik kalendar kunlari bo'yicha almashadi. Misol uchun fasllar kelinchagi bahor tugashi bilan jazirama issiq kunlari bilan yoz fasli boshlanadi. Bu tarzda fasllarning almashinuvi ko'pchilik boshqa

mamlakatlarda kuzatilmaydi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ayrim yillari fasllar almashinuvi buziladi. Bunga qishning cho’zilishi sabab bo’ladi. Bu holat 25–50 yilda sodir bo’lishi mumkin.

Fasllarning o’z o’rnida almashinishi O’zbekistonda o’simliklar turlarining ko’p va boy bo’lishiga sabab bo’ladi. Daniyalik botanik Raunkiye o’simliklarni hayotiy shakllariga ko’ra daraxt, buta, chala buta va o’t o’simliklar guruhiga bo’lib o’rganishni taklif etgan. O’zbekiston sharoitida o’simliklarning hayotiy shakllariga ko’ra barcha formalarini ko’rishimiz mumkin. Respublikamizda 4200 dan ortiqroq o’simlik turi mavjud. Bu o’simliklarni o’rganish uchun yozilgan VI tomlik “O’zbekiston florasini” 4148 ta o’simlik turi qayd qilingan. O’simliklar olami bitmas tugamas boy xazina hisoblansada uni asrash, yo’qolib boradigan turlarni himoyaga olish, noyob turlarni ko’paytirish uni kelajak avlodlarga bekamu kust yetkazib berish hozirgi zamon odamlarining asosiy burchidir. O’zbekistonning janubiy hududlarida joylashgan Qashqadaryo viloyati o’zining o’simliklar olamining betakrorligi qolaversa, o’zining maftunkorligi, turlarining xilma–xiligi bilan, yer yuzasiga tarqalishi va shunga o’xshash bir qancha belgi xususiyatlari bilan boshqa viloyatlar ichida o’z o’rniga ega. Qashqadaryo viloyatida 1500 ga yaqin tur o’simlik mavjud bo’lib ular o’zining biologik xususiyatlariga ko’ra oziq–ovqat, dorivor yem–xashak, qurilish uchun yog’ochlik, tola beruvchi, manzarali va xo’jalik uchun ahamiyatga ega bo’lgan o’simliklardan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishimizda o’rganayotgan Tanxozdaryo o’simliklari ham havza atrofida turli –tuman manzara hosil qilib o’sadi. Bizning kuzatishlarimizdan daryoning boshlanish o’ng va chap sohili o’simliklar tarkibi bir–biriga juda o’xshash. Buning asosiy sabablaridan biri tabiiy omillarning bir xilligidir. Daryoning pastga tomon oqib borishi o’ng va so’l tomoning o’simliklar olamini bir-biridan keskin farq qilishi kuzatildi. Chap sohildagi o’simliklar o’ng sohilidagi o’simliklarga nisbatan turlarning tur soni ko’pligi bilan ustun turadi. Bundan tashqari daryo havzasi o’simliklarining

fizianomiyasi yil davomida asta-sekinlik bilan o'zgarib turadi. Bahor faslining boshlanishi, hamda kunlarning isib kelishi bilan daryo atrofida efemer va efimeroid turlar juda gurkirab rivojlangan davri hisoblanadi. Efemer yunoncha—***ephmeros*** so'zidan olingan bo'lib, bir kunlik degan ma'noni bildiradi, ya'ni bular cho'l va qisman adir mintaqasida o'sadigan bir yillik o'simliklarning ekologik gruppasidir. ***Efemerlar deganda*** umuman vegetatsiyasining muddatidan qat'iy nazar jazirama issiqlar boshlanguncha o'z hayot jarayonlarini to'liq o'tib tugallovchi bir yillik o'simlik turlari tushuniladi. Ko'pchilik efemerlarning urug'i kuzdan boshlab unib chiqib boshlaydi. To'pbarg hosil qilib qishdan chiqadi. Efemerlarning hayotiy shakli, tarqalishi, o'sishi va rivojlanishiga ko'ra tipik bahorgi, kuzgi turlarga ajratish mumkin. Bu o'simliklarni shu xususiyatiga ko'ra kuzgi efemerlar deb atash mumkin. Ayrim bir yillik o'simliklar bahorgi bo'lib, haqiqiy efemerlar hisoblanadi. Ularning urug'lari erta bahorda unib chiqadi va yozning jazirama issiqlari boshlanguncha gullab urug' hosil qiladi. So'ngra tezda qurib qovjirib qoladi. Bir yillik efemerlarni kuzgi yoki bahorgi bo'lishiga umumiy iqlimiy sharoit sabab bo'ladi. Shuning uchun ham efemerlar deganda qisqa vaqt ichida ya'ni 40–45 kunda o'z vegetatsiyasini tugallovchi o'simliklarni tushunmaslik kerak.

Daryoning aholi yashaydigan Hazara, G'. Boboyorov, A. Temur va Navoiy xo'jaliklari hududlaridan oqib o'tgan maydonlarida o'simliklardan chorva mollari uchun dag'al yem-xashak tayyorlanadi. Buning asosiy sababi daryo sohilidagi yerlar mahalliy aholi tomonidan xususiy tomarqa sifatida foydalanish maqsadida o'zlashtirib olingan. O'simliklar qoplamidagi bir yillik turlar dag'al yem-xashak sifatida o'rib chorva mollari uchun qishgi ozuqa sifatida jamg'ariladi. Bir yillik o'simliklardan bo'shagan maydonlarda boshqa turlarga mansub bo'lgan ko'p yillik o't-o'lanlar gurkirab rivojlanadi.

Olib borgan kuzatishlarimizga asoslanib Tanxozdaryo o'simliklari qoplamidagi turlar tarkibini sistematik jihatdan tahlil etganimizda quyidagi natija kelib chiqdi.

**Bug'doydoshlar yoki boshqodoshlar oilasi-Poaceae Barnhart-Granineae
Juss.**

Turkumning nomi	Turning nomi
Qamish-Phragmites Adans	Oddiy qamish – Phragmites communis
Qo'ng'irbosh – Poa L.	Piyozli qo'ng'irosh-Poa bulbosa
	Yaylov qo'ng'irboshi- Poa alpina L.
Ajriq - Gynodon	Panjasimon ajriq – Gynodon dactylan
Otqo'noq – Phleum L	Ro'vakli otqo'noq – Phleum paniculatum Hud
Qiltiq-Taeniatherum Nevski	Uzuntukli qiltiq Taeniatherum crinitum (Schreb) Nevski
Bug'doyiq-Agropyron gaertu	O'rmalovchi bug'doyiq- Elytrigia (Agropyron) repens (L) Desv
Betaga-Festuca L	Betaga –festuca orientalis Kern
Chalov-Stipa L	Quda –Stipa hohenackeriana Trin.

Isiriqdoshlar oilasi - Peganaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Isiriq - Peganum	Haqiqiy isiriq – Peganum Harmala

Ziradoshlar-Soyabonguldoshlar oilasi – Apiaceae, Umbelliferae

Turkumning nomi	Turning nomi
Ko'ktikan - Eryngium L.	Ko'ztikan ko'ktikan – Eryngium biebers teinianum
Sabzi – Daucus L.	Yovvoyi sabzi – Daucus corata
Selderiy – Apium L.	Yalong'ochgulli selderiy – Apium hudiflora

Qoqio'tdoshlar oilasi– Asteraceae Dumort, Compositae Gis

Turkumning nomi	Turning nomi
Qushqo'nmas – Cnicus L	Turkiston qushqo'nmasi – Cnicus turkistanica
Moychechak – Matricaria L	Qirqmabarg moychechak – Matricaria recutita L.
Bo'yimadaron – Archillea L.	Oddiy bo'yimadaron – Archillea millefolium
Sachratqi – Cichorium L.	Oddiy sachratqi – Cichorium intybus L
Qo'ytikon – Xonthium L.	Oddiy qo'ytikon - Xonthium Spinosum
Qoqio't – Taraxacum Wigg	Dorivor qoqi – Taraxacum officinali web
Karrak – Causina L	O'tsimon karrak – Causinia ortholepis
Bo'ztikon – Sonchus	Oddiy bo'ztikan – Sonchus arvensis

Ra'nodoshlar oilasi – Rosaceae Juss.

Turkumning nomi	Turning nomi
Maymunjon – Rubus L.	Maymunjon – Rubus caeslus L
Na'matak – Rosa L.	Itburun na'matak – Rosa canina
Do'lana - Crataegus	Pontik do'lana-Bataegus pontica
Bodom - Amygdalus L	Achchiq bodom - Amygdalus bucharica
	Bodomcha Aymdalus spinosissima Bge
Olcha - Prunus	Tog'olcha – Prunus sogdiana Vass
Olma-Malus	Olma –Malus domestica

Burchoqdoshlar oilasi – Fabaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Sebarga – Trifolium L	O'rmolovchi sebarga – Trifolium repens
Yantoq – Alhagi Gagnab	Yantoq Alhagi pseudalhaegi
Miya - Glycrrhiza L	Qizilmiya-Glycrrhiza glabra
Burchoq – Pisum	Oq burchoq – Pisum album

Toshbaqatoldoshlar oilasi – Rutaceae Juss

Turkumning nomi	Turning nomi
Toshbaqatol–Haplophyllum Adr, Juss	Toshbaqatol-Haplophyllum Adr, Juss

Zig'irdoshlar oilasi – Linaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Zig'ir – Linum L	Oddiy zig'ir-.Linum Humile L

Kovuldoshlar oilasi-Capparaceae Juzz

Turkumning nomi	Turning nomi
Kovul-Capparis L.	Kovul-Capparis Spinosa L.

Karamdoshlar oilasi- Brassicaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Jag'–jag -. Capsella Medik	Oddiy jag'–jag - Capsella bursa pastoris

Momaqaltiroq-Alyssum L.	Dala momaqaldirig'i-Alyssum campeste L.
Momosirka- Erophila D.C.	Bahorgi momosirka- Erophila verna

Gulxayridoshlar oilasi -Malvaceae Juss.

Turkumning nomi	Turning nomi
Gulxayri- Althaea L	Dorivor gulxayri -Althaea officinals L
Tugmachagul -Malva L.	Befarq tugmachagul-Malva neglecta
Kanop -Abutilon Mill	Dag'al kanop -Abutilon thephrosti

Tutdoshlar oilasi –Moraceae Link

Turkumning nomi	Turning nomi
Tut –Morus L.	Qora tut-Morus negra L.
	Oq tut- Morus alba L.

Gazandadoshlar oilasi- Urticaceae Juss

Turkumning nomi	Turning nomi
Gazanda-Urtica	Gazanda, chayono't –Urtica dioica L.

Kelinsupurgidoshlar oilasi –Thymelaeaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Kelinsupurgi-Diarthron	Kelinsupurgi-Diarthron vericulosimFet.Mey.

Chinordoshlar oilasi –Platanaceae Dunart

Turkumning nomi	Turning nomi
Chinor–Plantanus L.	Chinor–Plantanus orientalis. L.

Yong'oqdoshlar oilasi –Yuglandaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Yong'oq-Yuglans L	Greki yong'og'i-Yuglans regia

Dalachoydoshlar oilasi –Hypericaceae Juss

Turkumning nomi	Turning nomi
Dalachoy-Hypericum	Dalachoy-Hypericum perforatum

Toldoshlar oilasi-Salicaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Tol-Salix L.	Tol-Salix L.
Terak-Populus L.	Oq terak- Populus alba

Yulg'undoshlar oilasi-Tamaricaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Yulg'un-Tamarix L	Archasimon yulg'un-Tamarix arceuthoides B-ge

Ayiqtovondoshlar oilasi- Ranunculaceae Juss.

Turkumning nomi	Turning nomi
Ayiqtovon.- Ranunculus L	Dala ayiqtovoni -Ranunculus arvensis L.
	O'rmalovchi ayiqtovon. -Ranunculus ensL.
	Zaxarli ayiqtovon- Ranunculus sceleratus L
Otashak, Uchma- Ceratocephalus Moench.	Uchma- Ceratocephalus orthoceras DC.

Semizo'tdoshlar-Portulacaceae Juss

Turkumning nomi	Turning nomi
------------------------	---------------------

Semizo't-Portulaca L.	Semizo't-Portulaca oleracea
-----------------------	-----------------------------

Qirqbo'g'imdoslar oilasi-Equisetaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Qirqbo'g'im-Equisetum	Dala qirqbo'g'imi– Equisetum arvense

Sarvdoshlar oilasi-Cupressaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Archa –Juniperus L	O'rikarcha yoki Turkiston archasi- Juniperus turkistanica

Zirkdoshlar oilasi-Berberidaceae Juss

Turkumning nomi	Turning nomi
Yersovun-Leontice L.	Tasbi yersovuni-Leontice eversmanii Regel
Zirk- Berberis	Qizil zirk- Berberis integerrima B.ge

Qizilchadoshlar oilasi-Ephedraceae Dumort

Turkumning nomi	Turning nomi
Qizilcha-Ephedra L.	Fedchenko qizilchasi-Ephedra fedtschenkova pauls

Zarpechakdoshlar -Cuscutaceae Dumort

Turkumning nomi	Turning nomi
Zarpechak -Cuscuta L.	Ingichka poyali zarpechak- Cuscuta approximate Babing

Ko'knordoshlar oilasi- Papaveraceae Juss

.

Turkumning nomi	Turning nomi
------------------------	---------------------

Qizg'aldoq -Papaver.	Lolaqizg'aldoq -Papaver pavonium
	Egilgan qizg'aldoq- Roemeria refracta

Sho'radoshlar oilasi-Chenopodiaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Sho'ra-Chenopodium L.	Oq sho'ra- Chenopodium album
	Qizg'ish sho'ra- Chenopodium rubrum L.
Ismaloq -Spinacia L	Turkiston ismalog'i- Spinacia turkistanica Zljin.

Torondoshlar oilasi-polygonaceae

Turkumning nomi	Turning nomi
Otquloq –Rumex L.	Qizil otquloq-Rumex tianchanicus
Toron-polygonum	Chumchuqtili toron-polygonum aviculareL.
	Suvqalampir-polygonum hydropiper L

Biz Tanxozdaryo o'simliklar qoplamini va florasini o'simliklar hayotiy shakliga ko'ra Serebryakov (1962) klassifikatsiyasida ishlab chiqqanimizda quyidagicha hayotiy shaklga ega bo'lgan turlar uchrashi qayd etildi.

DARAXTLARGA– Archa –Juniperus turkistanica, terak-Populus alba, tol-Salix alba, jiyya-Elaeagnus angustifolia.

BUTALARGA–oddiy maymunjon-Rubus calsius, itburun-Rosa canina, na'matak-Rosa canina, archasimon yulg'un-Tamarix arceuthoides.

CHALA BUTALARGA–tuksiz mevali potrium-Potrium polygonum, haqiqiy isiriq-Peganum harmala, tikanli kovul-Capparis spinosa, shuvoq-Artemisia vulgaris va boshqa turlar

KO'P YILLIK O'TLARGA–dorivor qoqi-Taraxacum officinali, dala qirqbo'g'imi-Equisetum arvense, dalachoy-Hypericum perforatum tatar chuchmomasi-Ixiolirion tataricum, kesik to'ng'iztaroq-Dipsacus laciniata.

IKKI YILLIKLAR GURUHIGA–qora mingdevona- Hyossyamus niger, bangidevona-, oqkarrak-Onopordon accenthium, kabilar.

BIR YILLIK TURLARGA–suvqalampir-Polygonum hydropiper, oq sho'ra-Chenopodium album, qizg'ish sho'ra-Chenopodium rubrum, oddiy jag'-jag'-Capsella bursa, egilgan qizg'aldoq-Papaver pavonium, , dag'al kanop-Abutilon theoprosti kabilar kiradi.

2.3 Tanxozdaryosi o'simliklar qoplamida va florasida uchraydigan turlarning ayrim vakillariga bioekologik tasnif

Biz bitiruv malakaviy ishimizning ushbu qismida Tanxozdaryosi o'simliklar qoplamida eng ko'p tarqalgan va dominant turlarning bir nechtasiga bioekologik tasnif beramiz.

Archa –(*Juniperus turkistanica*.) Umuman archalar tog' etaklaridan boshlab to dengiz sathidan 3400–4400 metrgacha bo'lgan balandliklarda o'sadi. Viloyatimizdagi tog'larning yuqori qismlari ham archa bilan qoplangandir. Archa yotiq tog' bag'irlarida va hatto tuproq bilan nam juda kam bo'lgan toshli joylarda, daralarda ham o'sadi. Uning baquvvat ildizlari qoya yoriqlariga o'sib, toshdagi yoriqlarni asta–sekinlik kengaytiradi, qoyalarni yemirib, boshqa o'simliklar bilan birga tog' yonbag'irlarida tuproq qatlami paydo bo'lishiga yordam beradi.

Archaning tanasi kulrang yoki qizg'ish po'stloq bilan qoplangan. Shoxlari juda ko'p bo'lib, goho sharsimon, goho cho'ziq yoki yoyiq shox–shabbalar hosil qiladi. Ba'zilar o'ralib o'sadi. Katta balandliklarda archa shamoldan shikast topib, yer bag'irlab o'sadi. Archa juda sekinlik bilan (yiliga 3-4 sm) o'sadi. U ming yil va undan ham ko'p yashaydi. Archazorlarda 2000 yoshli archalar ham bor.

Archaning yosh shoxlarida tangacha ko'rinishidagi bo'ladigan kumushrang–yashil, juda mayda (2 mm) bargchalari bor. Archa doimiy yashil o'simlikdir, chunki shoxlaridagi barglari 2-3 yil turadi va bir vaqtda to'kilmasdan, balki butun yil bo'yi to'kilib turadi. Shuning uchun archa qishda ham xuddi ko'pchilik ochiq urug'lik o'simliklar singari, yozdagidek yam–yashil bo'lib turadi. Kichkina barglarida barg og'izchalari kam bo'lib, ular bargning ustki tomonidan, mum g'ubori ostida bo'ladi. Shuning uchun archa suvni kam bug'lantiradi, bu unga tuproqda ham nam kam paytda ham yashashga imkon beradi.

Archa juda ham yorug'sevar o'simlik yaqin atrofda bir–biriga soya soladigan o'simlik bo'lsa, archaning shox–shabballari juda qalin bo'ladi va pastki shoxlari archaga osilib turadi.

Archa biologik jihatdan shamol yordamida changlanadigan bir jinsli ikki uyli ayrimlari bir uyli o'simlikdir.

Bahor oylariga kelib, ba'zi archalarning yosh shoxlariga boshqochalar hosil bo'ladi, ularda changli xaltachalar joylashadi. Bu xaltalarda bir talay chang etiladi. Boshqa archa daraxtlarida bu vaqtda eni bir sm.gacha bo'lgan sharsimon yashil g'uddalar paydo bo'ladi. Har bir g'udda bir nechta yog'ochsimon tangachalardan tashkil topgan. Har qaysi tangachasida bitta yoki ikkita urug'kurtak bo'ladi. Archa g'uddalarida tugunlar yo'q, shunga ko'ra, urug'kurtaklar ochiq yotadi. Shuning uchun ham ochiq urug'lik o'simlik deb ataladi.

Boshqochalarda yetilgan yengil chang tashqariga to'kiladi va uni shamol uzoq–uzoqlarga uchirib ketadi. Chang urug'kurtakli g'uddaga tushgandan keyin changlanish hodisasi ro'y beradi. Changlangandan keyin g'udda tangachalari zich yopiladi va qatron bilan bir–biriga yopishib qoladi. G'udda shu holida kelgusi bahorgacha qoladi.

Har bir chang zarrasi ikkita hujayradan iborat bo'ladi, ularning biri bahorda, chang naychasiga o'sib kirib urug'kurtakda joylashgan tuxum hujayrasigacha yetib boradi. Chang zarrasining ikkinchi hujayrasi tuxum hujayrasidan murtak rivojlanadi. Urug' kurtakning boshqa hujayralaridan oziq moddalar zapasi bor endosperm vujudga keladi.

Ochiq urug'lilar jumladan, archa urug'idan ko'payadi. Bu ular uchun xilma–xil yashash sharoitiga yaxshiroq moslashib olishga imkon beradi. Archa urug'lari g'uddalaridan etiladi. Ular mayda va cho'ziqroq bo'ladi. Urug'ning etilish jarayoni bir yarim, ikki yil davom etadi. Shu vaqt ichida g'udda tangachalari qo'shilib o'sib, etdor bo'lib qoladi va urug'larni tashqi tomondan et qavati bilan qoplab oladi.

G'udda yashil rangdan kulrang g'uborli to'q jigar rangga kiradi va tashqi ko'rinishidan rezavor mevaga juda o'xshash bo'ladi. Shuning uchun ham u g'udda meva deb ataladi.

Pontik do'lana—(*Crataegus pontica* C. Koch.) Bo'yi 10 m gacha boradigan va diametri 30–35 sm keladigan daraxt. Shox–shabbasi keng, shoxlari qisqa yo'g'on tikanli. Barglari rombsimon, uch bo'lakli chuqur qirgilgan, kul rangnamo–yashil. Gullari 12–18 donadan bo'lib soyabonsimon to'pgulga yig'ilgan. May oyida gullaydi. Mevasi sharsimon, ustki va pastki qismi yassi, to'q sariq, diametri 2 sm gacha, mevasi sentyabr oyining oxirlari, oktyabrning boshlarida etiladi. Har yili mo'l hosil beradi. Dastlab 7–8 yoshida hosilga kiradi. Mevasini esa bo'ladi, ta'mi juda mazali, nordon – shirin, sersuv.



Tog'larning toshloq yon bag'irlari o'simligi bo'lib, dengiz sathidan 1700 m gacha balandlikka ko'tarilib boradi. Odatda yakka holda o'sadi, kamdan–kam hollarda kichik daraxtzorlar hosil qiladi. G'arbiy Tyanshan, Pomir–Oloyda uchraydi. Mevali daraxt sifatida foydalaniladi, shuningdek o'rmon melioratsiyasida, tog' yonbag'irlarini mustahkamlash uchun ishlatiladi.

Ingichkabarg jiyda – (*Elaeagnus angustifolia* L.) Bo'yi 6–8 m keladigan va tanasining diametri 40–50 sm ga boradigan daraxt. Shox–shabbasi keng, anchagina nozik. Tanasi qizg'ish–qo'ng'ir. Bargi qalami–nashtarsimon, ustidan va ostidan torayib borgan, uzunligi 7 sm gacha va diametri 1,5–2 sm, kumushsimon oq, yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Hayotining 4–5 yilidan boshlab gullaydi. Gullarining uzunligi 2 sm gacha, 1–3 tadan bo'lib o'rnashgan, qo'ng'iroqsimon, och sariqdan sariq ranggacha, juda kam xushbo'y. Mevasi danak, jigar rang–sariq, eti shirin unsimon. Danagi cho'ziq, biroz egatchali, uzunligi 1 sm gacha. Urug'idan poya hamda ildiz bachkilaridan ko'payadi. Anchagina tez o'sadi.

O'rta Osiyoda keng tarqalgan, daryolarning qayirlarida, to'qaylarda o'sib, to'qaylarning boshqa o'simliklari bilan bir xil chakalakzorlar hosil qiladi. Qurg'oqchilik va issiqqa chidamli, tuproq sharoitlariga talabchan emas, shahar sharoitiga bardosh bera oladi. Ta'm sifatlari va mevasining shifobaxshligi, shuningdek, yog'ochining kattaligidan qadrlanadi. Biroz sho'rxok yerlarni ko'kalamzorlashtirish, daraxtzor to'siqlar uchun yaraydi. Kumushsimon jiydani boshqa o'simliklar bilan aralash o'stirish chiroyli manzara hosil qiladi.

Archasimon yulg'un -(*Tamarix arceuthoidis* L.) Bu o'simlik yulg'undoshlar (Tamaricaceae Link) oilasiga mansub. Yulg'un bo'yi 3–4 (6–8)m keladigan buta yoki daraxt o'simlik. Yulg'unlar bo'yoqli va asalchil bo'lib manzarali o'simlik hisoblanadi. Yulg'unlarning ko'pchilik turlaridan juda qadim zamonlardan buyon Janubiy Amerika, Italiya, Ispaniya va Osiyo xalqlari teri oshlashda foydalanib kelmoqdalar. Yulg'unlarning yashil novdalarida tannidning miqdori 9–14 % gacha, yog'ochlashgan qismida 6 % gacha va mevalarida 15% gacha bo'ladi. Yulg'unlarning jumhuriyatimizda yirik zapaslari yo'q. Shu sababli ham ular unchalik sanoat ahamiyatiga ega emas. Lekin ularning biologiyasini, ekologiyasini o'rganish nazariy ahamiyatga egadir.

May–sentabr oylarida gullab urug'laydi. Gullari yozda va kuzda yetiladi. Bir yillik novdalari tukli. Gullari bandsiz, yirik, to'q qizil, oqish–pushti ro'vaksimon

to'pgulda yig'ilgan. Tojbarglari cho'ziq-ellipsimon, Gullari 5 a'zoli. Ustunchasi 3 ta.

Zangori maymunjon- (Rubus caesius L.) Butasimon o'simlik ra'noguldoshlar oilasi maymunjon (Rubus L) turkumiga mansub. Bo'yi 50–150 sm gacha bo'ladi, ko'pincha yotib o'sadi; bir yillik novdalari yoysimon egilgan, silindir shaklida, ko'p tikanli, ba'zan dag'al tuklar va tikanli, bargchalari noto'g'ri tishsimon qirqilgan, oxirgisi tuxumsimon–romb shaklida o'tkir, ko'pincha yonidagi barglari ikki bo'laklidir. Guldor novdalari uzun, ularda to'pgullar o'rnashgan bo'ladi. Mevasi bir qancha donakchali, ko'k–qoramtir ranglidir. U may–iyul oylarida pishadi. Xalq tabobatida maymunjonning xom mevasidan zotiljam kasalligini, bargidan tayyorlangan qiyomdan esa tomoq og'rig'ini davolashda foydalaniladi. Undan oziq–ovqat sanoatida turli konfetlar, yoqimli likyor, spirtsiz ichimliklar, limonadlar ishlab chiqarish mumkin. Uning mevasi tarkibida shakar, efir moyi, tannid, oqsil moddasi, flavonlar, kaliy va fosfor tuzlari, solitsil, olma, chumoli hamda limon kislotalari va C vitamin ko'p bo'ladi.

Bargi tarkibida esa 300 mg % C vitamin bo'ladi. Maymunjon sifatli asalchil o'simliklar gruppasiga kiradi. Uning shoxlarini bargi bilan qo'shib qaynatilgan suv sochni buyaydi. Barglarini quyib bog'lansa, uchuqning tarqalib ketishini to'xtatadi; u saramas uchun ham yaxshi foyda qiladi. Uning barglarini chaynalsa, milkni mahkamlaydi va og'iz chaylanishini tuzatadi; pishgan mevalari ham shunday. Meva va barglarining shirasi issiqdan bo'lgan og'iz og'riqni tuzatadi. Barglari boshdagi yaralarni ham tuzatadi. Uni orqa teshikka quyib bog'lansa to'g'ri ichakdan o'sib chiqqan qonaydigan bavosilga foyda qiladi. Uning o'zi va guli ichak yaralariga va ichketishiga foyda qiladi va o'zidagi latiflik tufayli qovuqdagi toshni parchalaydi.



Itburun na'matak- (*Rosa canina*.) Bo'yi 3 m gacha butadir. Bargi toq patsimon murakkab, poyada ketma–ket joylashgan. Guli xushbo'y, rangi gulovi, gul o'rnidagi soxta meva ichida tukli, bir urug'li yong'oqchalar joylashgan. Itburun na'matak mevasida 4–6%, ba'zan 18% gacha C, B₂, K, P vitaminlari, 18 mg% cha karotin, 18% cha qand, 2% cha limon kislota, oshlovchi va boshqa moddalar bulib, tibbiyotda avitaminozning oldini olish va davolashda qo'llaniladi.



Tikanli kovul –(Capparis spinosa L.) Kovul –(Capparis L). Turkumiga mansub yarim buta o'simlik. Poya va shoxchalari yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik oq yoki och pushti. Mevasi qizil etli, ko'p urug'li. Kovulning g'unchasi, mevasi serkalab yoki tuzlab ovqatga solinadi. Mevasi 18% oqsil moddalar, 36% cha moy bor.



—.

Dorivor tizingul-(*Verbena officinalis* L.) Tizinguldoshlar-(Verbenaceae J.St.Nil.) oilasiga mansub bolib ko‘p yillik o‘t o‘simlik daryo atrofida ko‘plab o‘shishini kuzatdik. Poyasi tik o‘sadi, shoxlangan. Bo‘yi 30–100 sm. Barglari tuxumsimon, cho‘ziq nashtarsimon, yirik (4–8 sm) gullari mayda, oq, poya ustida ro‘vaksimon to‘p gul hosil qiladi. Apreldan–sentabrgacha gullaydi, mevasi iyunda pisha boshlaydi.

Tarkibida: verbenalen, adenozen glyukozidlari bor. Poya va barglaridan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida turli xil shishlar va teri kasalliklarini davolashda ishlaniladi.



Dala qirqbo‘g‘imi- (Equisetum arvensi L) Qirqbo‘g‘imdoshtar- (Equisetaceae Rich.ex DC.) oilasi vakili bo‘lgan ushbu Tanxozdaryo o‘simliklar florasida keng tarqalgan biz uni kishilar tomarqalari hamda bog‘larda uchratdik. Bu o‘simlik poyasi bo‘g‘im va bo‘g‘im oraliqlariga bo‘linganligi hamda xalqa shaklida har bir bo‘g‘imda 3 ta yoki undan ortiq bargning aylana bo‘lib joylashgan. Qirqbo‘g‘imning barglari shakli o‘zgargan yon novda hisoblanadi.

Tik o'suvchi, balandligi 50sm ga qadar boradi. Yer ostki organi bo'lgan ildiz poyasi yer bag'rida gorizantal holda joylashgan.



Qirqbo'g'imdan dori–darmon sifatida qadimdan foydalaniladi. Xalq tabobatida uning qiyomi, sharbatidan va qaynatmasidan oshqozon–ichak jarohatlari, qon ketishi, zotiljam va yutal kabi kasalliklarni davolashda foydalanib kelingan. Tabobatda, u siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Qirqbo'g'im Bolgar tabobatida o'pka, sili hamda siydik chiqaruvchi organlar kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Uning tarkibida ko'p miqdorda kremniy kislota, saponik–ekvizetanin, ekvizetgin alkaloidi, tannid, nikotin, flavon va glyukozid moddalari, shavel va olma kislotalari, mineral tuzlar, 10–15% oqsil, 2–3% yog', karotin, C va K vitaminlari bor.

Kesik to'ng'iztarq-(Dipsacus laciniata L.) To'ng'iztarqdoşlar (Dipsacaceae Juss) olasiġa mansub ko'p yillik o't. Bo'yi 100–250 sm, Poyasi jo'yakli, tepa qismi shoxlangan. Ildizi bo'g'zidagi to'pbarglar bandli, cho'ziqtuxumsimon, 5–8 sm. O'rama barglar bigizsimon–nashtar shaklida. Guli och–binafsha yoki oqish. Iyul–avgust oylarida gullab urug' beradi.

Dorivor qoqio't yoki momaqaymoq-(Taraxacum officinale web) Barglari yerbag'irlab, ko'm–ko'k, tuksiz. Barglarini uchi ancha katta, patsimon qirqilgan ko'p yillik o't o'simlik. Qoqio't mart oyida ko'karadi. U ildiz oldi barglar hosil qilib rivojlanadi. Gullari savatchada joylashgan, och sariq, tig'iz tukli, urug'i uchuvchan. Poyasi qisqa, ildizi ancha uzun, o'q ildiz. Qoqi dorivor o'simlik, xalq tabobatida ovqat hazm qilish organlarining ishini tezlashtiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bu o'simlikning hamma qismida sut shirasi bor o't o'simlikdir. O'q ildizda ko'p miqdorda insumen to'planadi, bundan ham soxta kofe tayyorlanadi. Qoqio't gullaganda qadar kishilar oziq sifatida, ko'k somsa qilib iste'mol qilishadi. Bu o'simlikni barglarini uzib olib, tuzlab iste'mol ham qilishadi.



Osiyo yalpizi yoki yalpiz. (*Mentha Asiatica* Boriss L.) Yalpizdoshlar - (Lamiaceae Lindl) oilasi vakilaridan bo'lgan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Poyasi tik novdali, barglari bandsiz, nashtarsimon, cho'ziq, cheti mayda arrasimon. Gultojbarglari och binafsha rangli. Ildizpoyasi orqali ko'payadi, poyasi qirrali, yalpiz ziravor va dorivor o'simlik, ba'zi rivoyatlarga ko'ra yalpizning hidi inson zihnini yaxshilaydigan o'simlik deb sanaganlar.

Italiya va Misrda talabalar yalpizni o'zlari bilan birga darsxonalarga olib kelishar ekan. Rimliklar uyga kelgan mehmonni yaxshi kutib olish va uning kayfiyatini yaxshi bo'lishi uchun yalpiz suvini uylariga purkar va stollarini uning barglari bilan artar ekanlar. Undan mahalliy aholi ko'k somsalar, chuchvaralar tayyorlashadi. Tabobatda nafas yullari, ovqat hazm qilish organlarining faoliyatini yaxshilashda, bod qichimani, og'riqni pasaytirishda, farmokologiyada, dori-darmonlarga hid berishda ishlatiladi. Atir-upa sanoatida, pasta, parashok, sovunlar tayyorlashda, binolarga hid berishda qo'llaniladi. Yalpizning yer ustki organlarining tarkibida 1.5-2 % efir moyi, 3-8 % tannid va achchiq moddalar, kafein va xlorengen kislotalari, hamda A va C vitamini bor. Yalpiz barcha iste'mol qiluvchi sabzavotlar ichida gavhari va latifidir.

Agar shohlari sutga tashlansa, sut ivimaydi, u shirasimon sirkaga solib ichilsa, ichdan qon oqishini to'xtatadi. Yalpizni ayniqsa arpa uni bilan qo'shib bosh og'rig'iga qarshi peshonaga quyib bog'lanadi. U bilan dag'allangan til ishqalansa, dag'alligi ketadi. Yalpizning shirasini asal suvi bilan aralashtirib og'rigan quloqqa tomiziladi.



Oddiy sachratqi-(*Cichorium intybus* L) Hayot shakliga ko'ra ko'p yillik o'simlik o'simlik hisoblanadi. Poyasi tik, tukchalar bilan qoplangan, shoxlangan bo'lib, bo'yi 70–125 sm ga yetadi. Uning ildizoldi barglari teskari–tuxumsimon, cho'ziq, cheti qirqilgan. Poya barglari nashtarsimon, yirik, tishsimon qirqilgan, asosi poyani o'rab turadi. Poyaning yuqori qismidagi barglari yaxlit, qirqilmagan. Savatchalari poya va yon navda uchlarida to'p bo'lib yoki bittadan joylashgan, qisqa gulbandlidir. Gullari ko'k–havo ranglidir. Sachratqi o'sish sharoitiga qarab, Iyun oyidan to oktabr oyigacha gullaydi va urug'i yetiladi. Uning bargidan salatlar tayyorlab iste'mol qilish mumkin. Ildizidan esa yuqori sifatli spirt olishda hamda oziq–ovqat sanoatida vino va kofe tayyorlashda foydalanish mumkin.

Xalqimiz sachratqining shifobaxshligini bilgan holda, undan tayyorlangan sharbatga oftob urishidan saqlash niyatida bolalarni cho‘miltirgan. O‘simlik kuli yog‘, qatiq bilan aralashtirilib teri ekzemasiga qarshi ishlatilgan. Ildiz sharbatidan ishtahani ochadigan, oshqozon–ichak faoliyatini yaxshilaydigan dori–darmon sifatida foydalangan. Jigar va sariq kasalini, chipqon hamda teridagi dog‘larni ketkazishda qo‘llangan. Chexoslovakiyada sachratqini qand lavlagi singari ekib, sikoriya degan kofe va choy tayyorlash uchun zarur bo‘lgan modda oladilar. Sachratqi ildizida 55–65% inulin, furuktoza, 10–20% levuloza, 0,6% yog‘ hamda B, vitamin bor. Bargida esa yog‘, inulin, shakar, azotli moddalar, kalsiy, kobalt, temir elementlari hamda vitamin C, B va karotin bo‘ladi. Sachratqi bilan oziqlangan sigirlar ko‘p sut beradi.

Oddiy bo‘yimadaron-(*Achellea millefolium* L.) Tanxozdaryo atrofida kichik-kichik formatsiyalar holil qilib o‘sovchi ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Ildiz bo‘g‘zidan bo‘g‘iz barglari va poyalar o‘sib chiqadi. Poyasi bir nechta, yuqori qismi shoxlangan bo‘lib, qalqonsimon to‘pgul bilan tugallangan. Iyunda gullay boshlaydi; mevasi mayda, yassi pistacha, avgustda yetiladi. Ekstrakti va damlamasi me‘da ichak yarasi kasalliklarini davolash ishtaha ochish hamda qon to‘xtatish uchun ishlatiladi. Bargi patsimon qirqilgan, och yashil yoki yashil rangli, ustki tomoni, ayniqsa tomirchalarning usti sertuk bo‘ladi. Poyaning ustki qismida yassi to‘pgullari savatcha shaklida joylashgan. Savatchalari uzunchoq, qadoqsimondir. Bo‘yimadoron Iyun–avgust oylarida gullaydi va iyul-sentabr oylarida urug‘laydi.



Bu o‘simlikni gullash davrida eng ustni qismidan tayyorlangan qiyom yoki sharbati xalq tabobotida oshqozon–ichak kasalliklari, bosh og‘riq, zotiljam, qon ketish kabi kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi.

Tabobatda ham undan tayyorlangan preparatlar bilan oshqozon yarasi, ichakdan qon ketish, bavesil kasalligi davolanadi. Bo‘yimadaron o‘simligining tarkibida 0,01–0,65% efir moyi, 0,05% alkaloid, tannid, achchiq anilleyn moddasi, glyukozid, organik kislotalar, mineral tuzlar karotin hamda C, K vitaminlari bor.

Oddiy dastirbosh-(*Tanacetum vulgare*.) Ko‘p yillik o‘simlik bo‘yi 150 sm gacha bo‘lgan sershox o‘simlik. Barglari patsimon, bandli va bandsiz, gullari sariq, qalqonsimon to‘pgul. Mevasi pista. To‘pgul tarkibida efir moyi, alkaloidlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor.



To'pgulining damlamasi va paroshogi gijja haydovchi, gipatet, angioxolit va ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

O'rmalovchi ayiqtovon-(*Ranunculus repens* L.) Ayiqtovondoshlar (*Ranunculaceae* Juss) oilasiga mansub ko'p yillik ildizpoyali o't o'simlik. Ildizpoyasi juda kalta, undan popuksimon ildizchalar chiqadi. Bo'yi 15–70 sm. Poyasi yerbag'irlab yoki yerdan bir oz ko'tarilib o'sadi. Barglari bandli, 1–2 marta 3 bo'lakka ajralgan. Gullari oltin sariq rang.



Ikki jinsli, qo'sh gulqo'rg'onli. Kosachabargi 5 ta, tojbargi 5 ta, sariq doria bo'lib joylashgan. Har qaysi tojbargning ostida shiradon chuqurchasi bor. Otaligi ham, onaligi ham ko'p, spiral bo'lib joylashgan. Tugunchasi ustki. Mevasi bir urug'li yong'oqchalardan iborat, shirasimon to'pmeva. Tarkibida zaharli animonol bor.

Danakli oqquray-(*Psoralea drupa*). Dukkakdoshlar-Fabatceae oilasi vakillaridan biri bo'lib hayot shakliga ko'ra ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. Bo'yi 60–130sm. Poyasi tarvaqaylab shoxlangan. Barglari oddiy yoki

uchbargchali, deyarli dumaloq, eni va bo'yi deyarli teng 1,5–5 sm. Gulkosalari qo'ng'iroqsimon, 5 tishli, gultoji binafsha rang. Dukkagi paxmoq tukli, uzunligi 5–6,5 mm, eni 2,5–3,5 mm. Iyun–sentabr oylarida gullab urug'laydi. Poyasi, bargi hamda mevasi tur va mayda bezakchalar bilan qoplangan. Dorivor o'simlik hisoblanadi. Ildizi va mevasida furokumarinlar (psoralin, izopsoralin) mevasida efir moyi va boshqalar mavjud. Ildizi, mevasidan olinadigan psoralin preparati pes kasalligi (vitiligo) ni davolashda ishlatiladi. Tog' yonbag'irlarida ko'p. Oqquraydan tola oladi. Oqquray tolasidan tayyorlangan uy-ro'zg'or buyumlari o'zining chidamliligi bilan o'simlik tolasidan tayyorlangan buyumlardan qolishmaydi.

O'rmalovchi sebarga-(*Trifolium repens*) ko'p yillik o't o'simlik. Bo'yi 15–40 smgacha keladi. Poyasi o'rmalab o'sadi, bargchalarining uchi o'yilgan, asosi ponasimon. Uch bargchali, ba'zan bosh bo'ladi. Sebarga yem- xashak o'simligi hisoblanadi. Zah yerlarda o'sadi, begona o't hisoblanadi. Kallak shaklidagi to'pgullariga ega.

Gullari bandsiz, gultoji qizil–pushti ranglidir. Dukkaklari, urug'li, ellipssimon yoki cho'zinchoq.

Qizilmiya yoki shirinmiya-(*Glycirrhiza glabra* L) Ko'p yillik o't o'simlik, poyasi tik o'sadi, tuklar bilan qoplangan. Barglari toq patsimon, tuxumsimon, gullari zigomorf, ildizi o'q ildiz.

Shirinmiya qadimdan dorivor o'simlik sifatida ma'lum. Uning ildizida gormonal faol glitserizin, saxaroza, furuktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, 30 ga yaqin flovonoidlar bor. Tibbiyotda shirinmiyaning ildizi va ildizpoyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig'lanish, allergiya, zaharlanish, addisson, bod, belangi, bo'g'ma, sil, chipqon, ekzima va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Shuningdek oziq–ovqat, kimyo, kon metallurgiya sanoatida ham ishlatiladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko'p miqdorda oqsil, yog', qand, karatin, vitamin C lar borligi aniqlangan.

Olmos o't -(*Ranunculus severtrovii*) ko'p yillik hayot shakliga ega bo'lgan o'simlik. Uning poyasi bitta, bo'yi 25–40 sm. Ildizi ro'vaksimon, yuqori qismi yug'onlashgan. To'p barglari bandli, poyadagi barglari bandsiz. Gullari to'g'ri ikki jinsli, gulqo'rg'oni murakkab, kosabarglari va tojbarglari odatda 5 tadan. Changchilari ko'p. To'pmevasi cho'ziq yumaloq cho'ziq. Mevalari mayda uzunligi 7–7,5 mm, eni 5–6 mm. Aprel–may oylarida gullaydi.



Yantoq (*Alhadi sparsifolia* Shap.) dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 60-80 sm ga yetadigan ko'p yillik o'simlik. Yantoq aprel oyida ko'karadi. Uning ildizi 15–20 m gacha chuqurlikka kiradi. Poyasi sershox, dag'al, usti ko'kish po'st bilan qoplangan. Uning uchinchi tartibidagi shoxchalari tikanga aylangan. Barglari tuksiz, 2-4 sm uzunlikda, eni 1,2-2,5 sm, ellipsimon yoki

teskari tuxumsimon, oxiri uchli bo'lib tugaydi. Pastki tikanlari yuqoridagi qismidagi tikanlaridan ancha katta bo'ladi. Iyul-avgust oylarida gullaydi. Gullari pushti rangli, gulkosasi tuksiz, uzunligi 1 sm, 3-5-8 tadan bo'lib shoxchalarga o'rnashadi. Mevasi avgust-oktyabr oylarida to'liq pishib yetiladi. Dukkaklari ayrim-ayrim bo'lib, tashqi ko'rinishi chayon dumiga o'xshash bo'g'im-bo'g'im ko'rinishda bo'ladi. Urug'i po'st bilan qoplangan. Urug'idan juda qiyin ko'payadi. Yantoqni urug'idan ko'paytirish uchun 85-95 °C qaynoq suvga 1–2 soat solib qo'yish kerak yoki urug'i pishgan paytda qo'ylarni shu yantoqzorga haydash kerak. Qo'ylar yantoqni yeyish bilan birga, urug'ini ham yeydi. Yantoqzorda boqilgan qo'ylarning qiyi yerga tushsa, u yerdan yantoq unib chiqishi bir necha bor kuzatilgan. Buning sababi yantoq urug'ining po'sti qalin bo'lib, qo'y oshqozonidagi fermentlar ta'sirida po'sti yupqalashib, urug'i ajralib qolsa kerak. Yantoq qorako'l qo'ylarining eng to'yimli va yaxshi hazm bo'ladigan qishki yem–xashagi hisoblanadi.





Yantoqdan kishilar shakar ham olishadi. Buning uchun yantoq shakari pishgan paytda uning tagiga sholcha tutib, tayoq bilan urganda yantoqdagi shakar to'kiladi. Bir kishi yoz davomida 100–150 kg yantoq shakari to'plashi mumkinligi ba'zi manbalarda qayt etilgan.

Oddiy qamish – (*Phragmites communis*) Bug'doydoshlaroilasiga mansub ko'p yillik ildizpoyali o'simlik. Ildizpoyali, o'sish sharoitiga qarab bo'yi 2–4 m ga yetadi: Uning poyasi tik o'sadi, tuksiz, silliq va ichi bo'sh bo'ladi. Barg novi tekis, bargining eni 5 sm. To'pgullari ro'vaksimon, uzunligi 50 sm bo'lib, pastki bo'g'imlari tuklidir. Boshqochalarining uzunligi 9–15 mm ga teng. Qamish iyul–oktabr oylarida gullaydi va urug'laydi. U qoramollar uchun bahor faslida yaxshi oziq o'simliklardan hisoblanadi. Yoz paytida poyasi yog'ochlanganligi sababli, hayvonlar uning faqat bargini yeydi. Bu o'simliklardan yuqori sifatli silos tayyorlash mumkin.



Qamish organik moddalarda va mineral tuzlarga juda boydir. O'sish sharoiti va rivojlanish davrlariga qarab, qamish tarkibida C va A vitaminlarining miqdori o'zgarib turadi. Bahorda o'simlik barralik paytida 500 mg% C vitamini bo'lsa kuzga borib uning miqdori 100 mg% ga to'g'ri keladi. Qamishni vitamin C olish manbalari deb hisoblash mumkin.

Piyozli qo'ng'irbosh (*Poa bulbosa* L.) Bo'yi 30–50 sm ga yetadigan efimeroid, ko'p yillik o'simlik. U asosan bahorda fevral oyining oxiri–mart oyining boshlarida, kuzda yog'in bo'lsa, noyabr oylarida ham ko'karadi. Uning poyasi tik. Barglari poyasiga nov (qin) hosil qilib joylashgan, lentasimon. Barglari ko'pincha ildiz tubida to'pbarg hosil qiladi. Ildizi sochiqsimon, yerga 8–10 sm chuqurlikka kiradi. Tig'iz o'sgan joylari chim hosil qiladi. Qo'ng'irbosh aprel–may oylarida gullaydi. Gullari sarg'ish, boshqoq qipig'idan chiqib turadi. Gultoji uzoq cho'zilmaydi. Urug'i may–Iyun oylarida pishadi.



U yupqa qipiq bilan qoplangan. Shuning uchun ham uni qo'ng'irbosh deb atashgan. U urug'idan ham, ildizi yordamida ham yaxshi ko'karadi. Urug'i tarkibida oqsil ko'p. Shu sababli uni madaniylashtirish haqida o'ylash kerak. U parrandalarga yaxshi don bo'ladi. Uni qo'y, echki, qoramol yaxshi yeydi. Sernam yillari uni gektaridan 10 s gacha xashak tayyorlash mumkin. Uning 100 kg quruq xashagida 4,9 kg hazm bo'luvchi oqsil va 64,6 oziq borligi aniqlangan. Har xil organik moddalar va mineral tuzlarga boy bo'lib, 9 % protein 11,5 % yog', 3 t klechatka moddalari, bargida esa yana o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga qarab 88–330 mg % C vitamin bo'ladi.

Dorivor gulhayri-(*Althaea officinales* L.) Poyasi tik o'suvchi, barglari poyada navbatlashib joylashgan ko'p yillik o'simlikdir. Poyasi va barglari tuklar bilan qoplangan. Mart oyida ko'karadi. Gul barg qo'ltig'ida joylashgan och pushti rangda. Gultoji gulkosachasidan 2–3 marta uzun. Mevasining ichida 20–22 ta urug'i bo'ladi.

Gulhayri muhim dorivor o'simlik, uning ildizi, poyasi va bargi turli xil ichak, oshqozon kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Toj barglari esa bo'yoq olishda qo'l keladi. Bu o'simlikdan olingan bo'yoq ip, jun, ipak matolarni bo'yashda hamda konditer sa'no'atida oziq–ovqat mahsulotlariga rang berishda qo'llaniladi. Quruq poya og'irligiga nisbatan hisoblaganda 10% gacha tola beradi. Bu o'simlikning ildizidan tayyorlangan dori ya'ni damlamasi ta'sirlanishni kamaytiradigan vosita sifatida foydalaniladi.

Oq baxmalgul, g'almas - (*Alsea nudiflora* L) hayotiy skakliga ko'ra ko'p yillik o'simlik. Uning bo'yi 70–200 sm gacha boradi. Poyasi tik o'sadi. Barglari uzun bandli yaproqlari yirik 5–7 bo'lakli, o'smali, chetlari tishsimon qirqilgan. Gullari yirik, to'pguli shingilsimon. Mevasi 25–30 ta buyraksimon urug' hosil bo'ladi. Iyun–sentabr oylarida gullab urug'laydi. Tabiiy zapaslari Tanxozdaryo florasida deyarli yo'q darajada.

Chumchuqtil toron-(*Polygonum aviculare* L) Bo'yi 10–100 sm. Ko'p yillik o'simlikdir. Poya va shoxlaridagi barglari keng ellipssimon, cho'ziq ovalsimon, tilsimon, ba'zan qalami. Gullari 1–5 tadan barg qo'ltig'ida o'rnashgan. Rasturublari (barg bandi bilan poyani o'rab turuvchi yonbosh bargchalardan tuzilgan yupqa parda) 4 mm cha silliq. May oyidan oktabr oyigacha gullab urug'laydi. Gulqo'rg'onning aksariat qismi qirqilgan. Mevasi serxom, bo'yi gulqo'rg'ondan kaltaroq. Poya va novdalaridagi barglarning shakli har xil. Poyasi tik, yonboshlab yoki och pushti, otaligi 5 ta, yong'oqchasi tuxumsimon, uch qirrali.

O'rmalovchi g'ozpanja, beshbarg – (*Potentilla reptans* L) Ko'p yillik o't. Bu o'simlik sudralib o'suvchi, poyasi ingichka, tuksiz yoki siyrak, qisqa tukchali bo'lib, sudralib o'sib poya bo'g'imlaridan ildiz chiqadi. Ildiz oldi

barglari uzun bandli, o'tkir, yaxlit qirg'oqli, panjasimon, 5–7 bargchali bo'ladi, barglarini cheti arrasimon tishlidir. Poya barglari qisqa bandli, bir oz yirikroq bo'ladi. Gullari barg qo'ltig'ida bittadan joylashgan bo'lib, sariq ranglidir. Changchisi 20 ta bo'lib, uzun ipli va changdoni cho'ziq. Mevalari tuxumsimon silliq va tuksiz. Beshbarg may–avgust oylarida gullaydi va urug'laydi.



U xalq tabobatida beshbarg ildizidan tayyorlangan qaynatma yoki qiyom ichketish va qon ketishni to'xtatuvchi, og'iz bo'shlig'ida ba'zan sodir bo'lgan jarohatlarni davolovchi vosita hisoblanadi. Beshbargning organlarida 5,8–11,5%

tannid, 16 % gacha qand, organik kislotalar, glyukozid hamda C vitamini mavjud.

Dorivor tizimgul-(*Verbena officinalis* L) Poyasi tik o'sadi, shoxlangan. Ko'p yillik o't o'simlik. Bo'yi 30–100 sm. Barglari tuxumsimon, cho'ziq nashtarsimon, yirik (4–8 sm) gullari mayda, oq, poya ustida ro'vaksimon to'pgul hosil qiladi. Apreldan–sentabrgacha gullaydi, mevasi iyunda pisha boshlaydi. Tarkibida: verbenalen, adenozen glyukozidlari bor. Poya va barglaridan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida turli xil shishlar va teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Tatar chuchmo'masi-(*Ixioliron tataricum*). Piyozboshli, poyasi serbarg o't o'simlik. Guli binafsha rang, shingilsimon to'pgul hosil qiladi. Ko'p yillik o'simlik Poyasi tuksiz silliq bargli, 15–8 sm. Barglari ingichka. Gulqo'rg'oni qo'ng'iroqsimon, 6 bargli. Changchilari 6 ta, urug'chining tumshuqchasi 3 ta, tuguncha va ko'sakchasi 3 qirrali. Aprel–may oylarida gullab, may-iyunda urug'laydi. Piyozi oziq–ovqat sifatida ishlatiladi shirin 1,5–2,5 sm yug'onlikda, qo'ng'ir qobiqli.

Dala qo'ypechagi – (*Convolvulus arvensis*). Yer bag'irlab yoki chirmashib o'suvchi, poyasining uzunligi 40–100 sm gacha yetadigan o'simlik. Hayot shakliga ko'ra ko'p yillik o't o'simlik.

Barglari yoysimon, nayzasimon, o'tkir uchlidir. Barg bandiga ega o'simlik. Gullari 1–2 tadan bo'lib barg qo'ltig'idan chiqqan gulbandiga o'rnashgan, oq yoki oqish pushti rangli. May–avgust oylarida pishadi. Mevasining tashqi ko'rinishi keng tuxumsimon, tuksiz uzunligi 6–8 mm. Qo'ypechak bo'z va qum aralash soz tuproqli nam yerlarda yaxshi o'sadi. Bu o'simlikni qorako'l qo'ylari, echki, qoramollar yaxshi yeydi. Bu o'simlik daryo yoqalarida dominant tur sifatida ko'p o'sadi.



Teshik choyo't.-(*Hypericum perforatum*) ushbu o'simlik ko'p yillikdir. Bizning kuzatishlarimizdan ushbu o'simlikning bo'yi 75 sm gacha yetib, poyasi silliq, yuqori qismi shoxlangan. Bargi tuxumsimon, to'pgullari cho'tkasimon ro'vak yoni yumaloq tuxumsimon shaklda bo'ladi. Choyo't may–avgust oylarida gullaydi, iyul–sentabr oylarida esa urug'i pishadi. Choyo'tning shifobaxshligi

qadimdan ma'lum. Shu sababli xalqimiz choy o'tni 99 dardning davosi deb bejiz aytmagan. Uning yer ustki qismidan jigar, oshqozon, shamollash kabi kasalliklarni davolashda burushtiruvchi va siydik haydovchi vosita va bo'yoq sifatida foydalanilgan. Bu o'simlikning bargi, novda va to'pgullari, ayniqsa gullash davrida dori-darmonlik xususiyatiga ega bo'lib, ulardan tabobatda oshqozon-ichak, jigar, yutal, yara, zotiljam kasalliklarini davolashda, qon ketishini to'xtatishda dori-darmon sifatida foydalaniladi. Choyo'tdan antibakterial xususiyatiga ega bo'lgan immun hamda oqsilli preparat tayyorlanadi. U shikastlangan to'qimani tiklaydi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda choyo'tdan olingan sharbat vena qon tomiriga yuborilsa, u yurak faoliyatini va qon bosimini yaxshilaydi, ishtahani ochadi, oshqozon-ichak ishini tartibga soladi. Bolgar xalq tabobatida choyo'tdan oshqozon shirasidagi kislotalikni pasaytirishda bo'g'im bodini, buvasil (gemorroy) jigar, buyrak kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Choyo'tning shifobaxsh bo'lishiga sabab, uning tarkibida turli kimyoviy moddalar bo'lishidir. 3,8–13% tannid, 14% smola, 12% shakar moddalari, och 0,5 % efir moyi, giprozir, glyukozid, flavon, giparik, giperisin, pisivdogeperisin, karotin, antotsian, organik kislotalar, menechap tuzlar va C, A vitaminni bo'ladi.

Guli ro'vaksimon to'pgul, sariq, ikki jinsli, kosachabarglari ko'pikga yarmisigacha qo'shilgan. Changchilar ko'p, o'zaro outashgan, urug'chi 1ta, 3–5 uyali, mevasi ko'sakcha.

Haqiqiy isiriq – (Peganum harmala L). Tanxozdaryo sharoitida uning bo'yi 40–70 smga, diametri 1 m ga yetadi. Mart oyida ko'karadi. Ko'p yillik o'simlik Uning poyasi tez o'sadi. Bir turida 60–80 tagacha poyalari bo'ladi. Poyasi ko'm–ko'k yumaloq. Barglari ingichka, bir necha bo'lakka bo'lingan. Shuning uchun murakkab bargga o'xshab ko'rinadi. Barglari bandsiz. Mart oyida gullaydi. Gullari katta oq tusda. U gullagan paytda tut ham pishadi. Isiriq mevasi Iyun oyida pishadi. Mevasi dumaloq chanoqcha. Uning ichida bir nechta qo'ng'ir tusli urug'lari bo'ladi. Isiriq urug'i yallig'lanish kasalligini davolashda ishlatiladigan alkaloidlar–garmonil, garmalol, peganin va garmin bor. Bu alkaloidlar hatto xinini o'rnini bosishi mumkin. Dezoksipeganin

gidroxlaridning ampuladagi eritmasi miastimiya, meapatiya va boshqa muskul kasalliklarini hamda nevrit kasalikni davolashda ishlatiladi. Bundan tashqari uning urug'ida qizil va jigarrang bo'yoqlar tayyorlanadigan bo'yoq moddalari ham bor. Ibin Sino uning yer ustki qismini ezib bo'g'inlar og'riganida va nervlar shamolaganda og'rigan yerlarga bog'lashni tavsiya etgan. Teri kasalliklarida ham ishlatgan.

Yovvoyi sabzi.- (*Daucus carota* L) Ikki yillik o'simlik bo'lib uning bo'yi 1,5–2,5m keladi. Ildizi nozik urchuqsimon. Uning poyasi dumaloq, silliq, chiziqchali, o'rta qismidan boshlab shoxlangan bo'lgan. Bargi cho'ziq tuxumsimon, patsimon, ikki bo'lakchali, cheti qirqilgan yoki tishsimon bo'lakli. Bargining usti tuksiz, ostki tomoni tukli bo'ladi. Pastki barglari bandli, yuqoridagi barglari bandsiz bo'lib, poya va novdalarda joylashgan. To'pguli ko'p nurli, soyabon shaklida bo'lib, gullaganida shingillarga bo'linib ketgan. Mevasi mewabandidan 2–3 marta qisqa. Yovvoyi sabzi may–Iyun oylarida gullaydi, urug'i iyul–avgust oylarida pishadi. Yovvoyi sabzining urug'i turli mamlakatlarda har xil dori–darmon sifatida, Amerikada, Yevropa va Osiyoda hayz ko'rishni qo'zg'atuvchi dori sifatida, Misrda buyrakdagi toshlarni tushirishda ishlatiladi. Urug'i siydik haydash xususiyatiga ega. Urug'i tarkibida 18% yog', 21% protein, 75% efir moyi, karotin, A provitamin. 15–62 mg% B, B₂, K va 11mg % C vitaminlar bor.



Oddiy oqkarrak.-(Onopordion accenthium) Hayot shakliga ko'ra ikki yillik o'simlik. Poyasi sershox, tik o'sadi, bo'yi 80–120 sm. Ildizi yug'onlashgan o'q ildiz. Ildiz bo'g'zidagi barglari cho'ziq-tuxumsimon, asosiy barglari nashtarsimon, chetlari tikanli, arratishli, navbatlashib joylashgan. Gullarining rangi to'q qizil ko'rinishda, savatchalari shoxlarining uchida 13 tadan, bandsiz to'pgul hosil qiladi. Mevasi kulrang yoki ba'zan jigarrang urug'cha shaklida. Iyun–sentabr oylarida gullaydi va meva hosil qiladi. Ko'payishi urug'lari orqali amalga oshadi. Urug'larining unib chiqishi uchun 20–25C harorat optimal miqdor hisoblanadi. Oddiy oqkarrak Sho'robsoyning barcha maydonlarida uchraydi. O'simliklar qoplamida unchalik qalin bo'lmagan holda mavjud bo'lib, mahalliy aholi asosan chorvachilikda yem xashak sifatida ishlatadi.

Sariq qashqarbeda - (*Melilotus offianalis* L). Ikki yillik o'simlik poyasi tik o'sadi, shoxlangan, tuksiz yoki uning yuqori qismi tukli bo'lib, bo'yi 100 sm gacha bo'ladi. Yonbargchasi bigizsimon, bargi tuxumsimon, uzunligi 9–25 km eni 3–16 mmga teng. Shingilsimon to'pgulda 30–80 ta guli bor. Gultojibarglari sariq rangli. Dukkagi tuxumsimon bo'lib 5–8 mm kattalikda ko'ndalangiga g'adir–budir, tuksiz. Qashqarbeda may–avgust oylarida gullaydi, hamda urug'laydi.

Xalq tabobatida uning yer ustki qismidan olingan qaynatma isitma kasalligini davolashda ishlatiladi. Barglaridan tayyorlangan talqondan yaralarni davolashda foydalaniladi. Farmatsiftikada turli dorilar tayyorlashda qo'llansa bo'ladi. Bolgariyada o'simlik sharbati chipqon, quloq og'rig'i, giripp hamda qon bosimida qarshi vosita hisoblanadi. Uning yer ustki organlarining tarkibida 398mg% C, 45mg% E. Vitaminlari, 8t mg% karotin, 0,25% melolotin–glyukozid, kumarin, holin, tannid, flovinli glyukozid bo'ladi.


Qora mingidevona – (*Hyosyamus niger* L). Ikki yillik o'simlik. Poyasi shoxlangan bo'lib, tuklar bilan qoplangan. Poyadagi barglari tuxumsimon, 3–7 bo'lakli, bandsiz, ketma–ket joylashgan. Aprel–iyul oylarida gullaydi. Gullari sarg'ish, keng voronkasimon, poya uchida to'pgul hosil qiladi. Mevasi may–avgust oylarida pishadi. Mevasi 2 xonali, ko'p urug'li, ko'zachasimon ko'sakcha. Mingidevona O'rta Osiyo, Sibr, Kavkaz, Uzoq Sharqda keng tarqalgan. U narkotik o'simlik sanaladi. Uning bargi, urug'i tarkibida alkaloidlar, giostamin atchorin, skopolamin kabi moddalar ko'p uchraydi. Barg ekstrati va urug'ining moyidan kishilar bod, asab kasalliklarida og'riq qoldiruvchi dori sifatida foydalaniladi. Bargidan astma kasalligida ichiladigan astmatol parashogi tayyorlanadi. Barg shirasi o'sma kasalligiga, quloq og'rig'iga shifo bo'ladi. U qadimdan shifobaxsh o'simlik sifatida ma'lum. Faqat undan foydalanishni bilish kerak. Uni urug'ini bolalar bilmay iste'mol qilib quyishlari mumkin. Kamroq iste'mol qilinsa og'izdan ko'pik kelib bolaning ko'zi chaqchayeb hushidan ketadi. Shol qilib qo'yadi. Bolaning rangi oqarib qayt qiladi va hushidan ketadi.

Yalong'och urug'li qariqiz – (*Arctium leiospermum* Zuz. et. Serg)

Hayotiy shakliga ko'ra bir yillik o't. Poyasi tik va qirrali, ko'p bargli yuqori qismidan shoxlangandir. Bo'yi 150-178 sm. Ildizoldi barglari juda yirik, tuxumsimon, asosi yuraksimon bo'ladi. Poyada joylashgan barglari katta bandli, ustki tomoni yashil rangda, tuksiz ba'zan qisqa tukli, ostki tomoni och yashil rangli, cheti mayda tishlidir. Gullari savatcha holida joylashgan bo'lib, uning deametri 3 sm gacha bo'ladi. Qariqiz iyul-avgustda gullaydi va mevasi iyul-sentabrda pishadi. Uning mevasi odam va hayvonlarga ilashib tarqaladi. Qariqizning yosh poya va novdalarini pishirilgan holda, ildizini esa sabzavotlar singari ovqatlarga solib iste'mol qilinadi. Zarur bo'lganda quritilgan ildizi yanchilib, bug'doy yoki arpa uniga aralashtirilgan holda non yopilsa ham bo'ladi. O'simlikdan tayyorlangan qiyom siydik haydovchi va terlatish xususiyatiga egadir. Barg shirasidan yaralarni davolashda foydalaniladi. Urug'i surgi sifatida, chipqon hamda govmuchchani davolash uchun qo'llaniladi. Sochni mustahkamlash va o'stirishda ham foydalangan qariqiz ildizi tarkibidan 35–40% insulin va tannid hamda achchiq moddalar bo'ladi. Uning ustki organlarida 2–4% tannid moddasi, pigment, karotin, oz miqdorda efir moyi mavjud. Bu o'simlik Tanxozdaryosi o'zanining keng tarqalgan o'simliklaridan biridir

Dala ayiqtovoni – (*Ranunculus arvensis* L). Hayot shakliga ko'ra bir yillik terofil o'simlik. Poyasining balandligi 10–30 sm, tuksiz, ko'p marotaba shoxlangan, meva yetilish davrida guldor poyalari o'sib chiqadi. Pastki barglari bandli, butun tekis teskari tuxumsimon yoki cho'ziq tuxumsimon, asosi lolasimon, uchida uch tishli yoki qirqilgan, tezda qurib qoladi. Qolgan barglari bir yoki ikki marta ponasimon, nashtarsimon uchta bo'lakka qirqilgan, tishchali yoki tekis qirrali. Guldor poyasi siyrak, yotiq tuklar bilan qoplangan, nozik va ko'pincha egilgan. Guli och sariq, 8 mm enlilikda, kosachabarglari har tomonga tarvaqaylagan, tukli. Tojbarglari cho'ziq tuxumsimon, kosachabarglari ancha uzun. Mevasi yulduzsimon, 4–10 tagacha, nozik 7–8,5 mm uzunlikda, tumshuqchali, teskari tuxumsimon, biroz yassiroq yon tomonlari va chetlari tikanlar bilan qoplangan. Kam hollarda g'adir-budir. Tumshuqchali 3–5 mm

uzunlikda tekis yoki biroz qayrilgan, tishsimon, tig'simon o'tkirlashgan yug'onroq. Aprel–may oylarida gullab, mevasi yitiladi.



Kimyoviy tarkibi: sianogen birikmalar: trigloxini, durrin, flavonoidlar, j-lakton, 0,58% gacha parotoanimonun 1,71% ranunkulin. Yer ustki organlar, alkaloidlar, vitamin C, karotin, j-lakton: 0,28% gacha protoapsmonin. Bargida girolizatdagi flavonoidlar: 0,5% dan ko'proq kvarsetin, 0,5% ranukulin. Gulida flovonoidlar; 20,4% yog' moy, yog' kislotalari; oliin, lind, linolik. Ahamiyati: bargli antibakterial xususiyatiga ega.

Zaharli ayiqtovon –(Ranunculus sceleratus L) tugmabosh, quyon o't ham deb ataladi. Ushbu o'simlik hayotiy shakliga ko'ra bir yillik. Poyasi 20–45 sm,

tuksiz kam hollarda yotiq tukli, tekis chiziqli, shoxlangan, to'pgulli. Pastki barglari qirqilgan, bo'laklari enli, uzunchoq yoki rombsimon, to'proq, yirik tishchali. Poyadagi barglari ham uch bo'lakka ajralgan yoki qirqilgan bo'laklari qalamsimon yoki nashtarsimon, uzunchoq parrak shaklida. Guldon poyasi tukli. Guli 710 mm enlilikda. Kosachabarglari pastga egilgan, tojbarglari uzun, 5–6 ta changchilariga teng yoki deyarli teng tig'simon. Mevasi 1–1,3 mm uzunlikda, juda ko'p, uzunchoq silindrsimon kallakcha yig'ilgan, yon tomonlari siqilgan, burmali, kalta, uchi o'tkir tumshuqchali. Aprel–Iyun oylarida gullab, mevasi yetiladi.

Kimyoviy tarkibi: tarkibida protonemanin bo'lgan efir moyli, saponinlar, 0,013% alkaloidlar, nitrobirikmalar: xolin, 4,2% oshlovchi moddalar, ko'marinlar, j–laktonlar.

Ahamiyati: sil, bosh og'rig'i, havo yetishmasligi, yurak bezovtaligi, assit, ich qotishi, teri kasalliklarida, saratonda ishlatiladi. Veternariyada otlarning yiringli va narkotik yaralarida qo'llaniladi. Antifungal va antibakteriostatik xususiyatga ega. Yer ustki organlari gomeopatiyada teri kasalliklarida, revmatezmida, gripda, tibit tabobatida shishlarda, assitda, bosh og'rig'i, genikologik kasalliklarni davolashda turli sho'rvalarga solinadi. Bargi hind tabobatida teri yiringli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Uchma-(*Ceratocephalus orthocea*) Hayot shakliga ko'ra bir yillik o't o'simlik. Ko'klamda gullovchi, barglari uch bo'lakcha bo'lib qirqilgan guli sariq, mayda o'simlik. Ularning kosachasi 5 ta, tojbargi 5 ta, tanasida shirador bezlarining chuqurchasi bor. U efimer o'simlik hisoblanadi. Mevasining uchi ingichka, qariyb 3 qirrali va to'g'ri bo'ladi. Ko'klamda bu o'simlik qo'ylar uchun zaharli hisoblanadi. Tanxozdaryo o'simliklar qoplamida formatsiya hosil qiladi.



Dag‘alkanop – (*Abutilon theophrasti*) Hayot shakliga ko‘ra bir yillik o‘t o‘simlik. Bo‘yi 50–200 sm, tik o‘sovchi, poyasi deyarli shoxlanmagan. Barg yirik tuxumsimon, asosi yuraksimon, uch tomoni ingichka, o‘tkirlashgan bo‘ladi. Barg cheti qirqilgan, tomirlari esa ko‘zga tashlanib turadi. Bargi tukchali. Barg uzun bandda joylashgan. U iyun–avgust oylarida gullaydi, urug‘i avgust–sentabr oylarida pishadi. Dag‘alkanop urug‘idan juda osonlik bilan ko‘payadi. Dag‘alkanop qadimdan tola beruvchi o‘simlik hisoblanadi. 1931–yili dag‘alkanop 2118 ga, 1932 yili esa 11000 ga maydonda o‘stiriladi. Dag‘alkanop tolasi dag‘al tolalarga kiradi, chunki 5/4 qismi yog‘ochlangan hujayralardan tashkil topgan. Uning tolasi texnik va elementar tolalaridan iborat. Tolaning o‘rtacha uzunligi 4–5 mm, yo‘g‘onligi 1216 s. U oq rangli, yaltiroq, pishiq va tezda uzilmaydi. Tola nam joyda yoki suvda uzoq vaqt yotsa–da, u egiluvchanlik xususiyatini yo‘qotmaydi va chirimaydi. Bu esa ulardan turli xil baliq ovlaydigan to‘rlar, arqonlar va materiallar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Pushti lamium – (*Lamium amplexicaule* L) Bir yillik o‘simlik bo‘lib uning bo‘yi bizning kuzatishimizcha daryo hududida 10-25 sm ga yetadi.

Poyasi shoxlangan, yerdan ko'tarilgan xolda o'sadi. Barglari dumaloq yoki dumaloq-buyraksimon. Guloldi barglari bandsiz, keng, poyasi halqasimon holda o'rab olgan. Mart-may oylarida gullab, aprel-iyunda urug'laydi. Yaxshi asal beruvchi o'simlik hisoblanadi. Lo'libeshxo'rjunni mol yemaydi. Tuyalar uchun zaharli hisoblanadi.



Oddiy bangidevona.-(*Datura stramonium* L) Bo'yi 100–120 sm ga yetadigan bir yillik, qo'lansa hidli o't. Poyasi tevarak-atrofga qarab shoxlangan,

tuksiz, silliq va yashil ranglidir. Bargi yirik, tuxumsimon, uch tomoni o'tkirlashgan, ustki tomoni esa to'q yashil, ostki qismi och yashil rangli. Gullari gulbandli barg qo'ltig'ida bittadan joylashgan. Kosachasi 5 qirrali, 4–6 sm kattalikda, yashil rangli va qisqa tukli, o'tkir tishchali bo'ladi. Gultoji oq, uzunligi 6–12 sm, uzun naycha bo'lib, uch tomoni qayrilgan. Mevasi ko'sakdan iborat bo'lib, uning usti o'tkir tikanlidir. Bangidevona may–sentabr oylarida gullaydi, mevasi iyul oyidan boshlab yetiladi. Xalq tabobatida bangidevonadan tinchlantiruvchi dori sifatida, shuningdek u bod, asab kasalliklari, ko'z va tish og'rig'ni davolashda foydalanilgan. Tibbiyotda bangidevonadan nafas qisishi, yo'tal, nafas yo'llari shamollashida va bivosilni davolashda foydalaniladi. Bangidevona tarkibida alkaloidlardan atrolin, giossiamin va skopolamin, efir moyi, oshlovchi moddalar va yog' kislotalari bo'ladi. Uning urug'ini bilmasdan yeb quyilsa, kishini og'ir ahvolga solib qo'yadi. Shu tufayli undan bolalarni ehtiyot qilish zarur.

Suv qalampiri.- (*Polygonum hydropiper* L). Bu o'simlik achchiq ta'mli, poyasi tik, o'suvchi, qizg'ish rangli, bo'yi 75 sm keladigan o'simlik. Bir yillik o'simlik Poyasining pastki qismidan joylashgan barglari qisqa bandli, yuqoridagisi esa bandsiz bo'lib poyada joylashgan. Barglarining uzunligi 8 sm gacha, eni esa 3 sm gacha bo'ladi. Suvqalampir oktabr–iyul oylarida gullaydi va urug'laydi. Suvqalampirning bargi novda va ildizi juda achchiqdir. Gullash davrida uning shifobaxshlik xususiyati ortadi. Undan tayyorlangan preparat gedropirin hamda sharbat, ichdan qon ketishi, zotiljam va vabo, sil, kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Bolgar xalqi tabobatida bu o'simlikning qiyomidan oshqozon ichak kasalliklarining va turli yaralarni davolashda foydalaniladi. Suvqalampirning barg va novdalaridan rutin, kvarstin, 8% gacha tannd, poligoriperin, glyukozid, qand moddalari, efir moyi, poligon, sirka, olma, valirian va melinsin kislotalari, meniral tuzlar, P. K, hamda 200mg % C vitaminlari mavjud.



Lolaqizg'aldoq.-(Papaver pavonium) Hayot shakliga bir yillik o't o'simlik. Poyasi oddiy, qalin tuklar bilan qoplangan. Barglarini cheti qayrilgan, ildiz bo'g'zida joylashganlari uzun bandli, ikki marta patsimon qirrilgan. Poyadagisi bandsiz, 3 marta qirrilgan, kimtik, g'unchasi tuxumsimon. Gultoji qizil, uning ostki qismi qora dog'li. Uni mollar deyarli yemaydi, undan ko'p yegan otlar zaharlanishi mumkin. Poyasi, bargi, gullarida 0,1% alkaloid bor. Gultojbarglarining suvi xalq tabobatida oftob urgan bolalarga ichiriladi, shuningdek, og'rigan ko'zni yuvish uchun ishlatiladi. Lolaqizg'aldoqning tojbargidan ovqat sa'noatida ishlatlsa bo'ladigan zararsiz bo'yoq olinadi. Lolaqizg'aldoq manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Xulosa.

2010-2012 yillarda Tanxozdaryo florasini va o'simliklar qoplamida tarqalgan ayrim o'simliklar ustida olib borgan ilmiy tadqiqot ishimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizni bajarish va yozish jarayonida Tanxozdaryo oqib o'tuvchi hududini akademik Qodir Zokirov ko'rsatmasiga binoan uchta zonaga bo'lib o'rgandik. Daryo o'simliklar qoplamini va florasini o'rganishda tuzilgan rejamizga asosan uning iqlimi va tuproq resurslarini adabiyotlardan va kuzatishlarimiz natijasida o'rgandik.
2. Daryo florasini sistematik jihatdan tahlil qilganimizda 28 ta oilaga mansub 5 tur daraxt, 3 tur buta, 5 tur chala buta, 45 tur ko'p yillik, 4 tur ikki yillik, 21 ta bir yillik turlar borligini aniqladik.

Ushbu o'simliklardan daraxtlarga archa, terak, tol, jiyya, olma. Butalarga oddiy maymunjon, itburun na'matak, archasimon yulg'un. Chala butalarga—tuksiz mevali potrium, haqiqiy isiriq, tikanli kovul, shuvoq. Ko'p yillik o'tlarga dorivor qoqi, dala qirqbo'g'imi, dalachoy, tatar chuchmomasi, kesik to'ng'iztaroq. Ikki yilliklar guruhiga qora mingidevona, bangidevona, oqkarrak, sigirquyruq. Bir yillik turlarga—suvqalampir, oq sho'ra, qizg'ish sho'ra, oddiy jag'-jag', egilgan qizg'aldoq, dag'al kanop kabi turlarni o'sishi kuzatildi.

3 Tanxozdaryo hududida olib borgan kuzatishlarimiz natijasida eng ko'p tarqalib, o'ziga xos formatsiyalar hosil qiladigan oilalarga bug'doydoshlar-(Poaceae), qoqio'tdoshlar-(Asteraceae.) ayiqtovondoshlar- (Ranunculaceae), ra'nodoshlar-(Rosaceae Juss), burchoqdoshlar-(Fabaceae), yalpizdoshlar-(Lamiaceae Lind), gulxayridoshlar-(Malvaceae), ituzumdoshlar- (Solanceae) kabilarni ta'kidlab o'tish mumkin.

4. Mavjud turlardan 32 turi dorivor Qizilmiya- (Glycirriza glabra), Qirqmabarg moychechak, ramashka- (Matricaria recutita L), Oddiy sachratqi- (Cichorium intybus L) Dorivor tizingul-(Verbena officinalis L), Dorivor gulxayri- (Althaea officinalis L), Oq baxmalgul- (Althaea nudiflora L), kabilar.

5. 27 turi yem-xashak, Oddiy oqkarrak-(*Onopordon accenthium*), Sariq qashqarbeda-(*Melilotus offianalis* L), Otquloq-(*Rumex tianchanicus* L),– Yirikbarg zubtutum, bargizub-(*Plantago major*.L), Oddiy jag‘–jag‘, achambiti (*Capsilla bursa pastoris* Medic), Yovvoyi sabzi-(*Daucus carota* L)

6. 7 tur nodir o‘simliklar–Oddiy bo‘ymadaron- (*Achillea millefolium*), Olmoso‘t, Severtsov ayiqtovoni (*Ranunculus severtrovii*), Oddiy dastirbosh- (*Tanacetum vulgare*), Haqiqiy isiriq -(*Peganum harmala*), Tatar chuchmomasi- (*Ixiolirion tataricum*) o‘sishi aniqlandi.

7. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki mavjud turlar orasida turli omillar ta’sida inqirozga uchragan o‘simlik turlari mavjudligi kuzatildi. Salbiy ta’sir etuvchi omillarga daryo atrofidagi maydonlarni mahalliy aholi tomonidan o‘zlashtirilishi, chorva mollarini ko‘plab boqilishi, bahor faslida bo‘lib turadigan suv toshqinlaridir.

Xulosa qilib aytganimizda ,Tanxozdaryo florasi va o‘simliklar qoplami turli-tuman o‘simliklarga boy daryolardan hisoblanadi va ularni biologik, ekologik, kimyoviy jihatdan o‘rganish kelgusida xalq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga egadir. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz biologik mutaxassislar, magistrlar, shu sohaga qiziquvchi kishilar uchun hamda xalq tabobati bilan shug‘ullanuvchilar, chorvadorlar uchun va ushbu sohada izlanishlar olib borayotgan kishilar uchun muhim qo‘llanma bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov. I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. "O'zbekiston" nashriyoti, 1998 yil.
2. Karimov. I.A. O'zbekiston XXI asr barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent "O'zbekiston" 1997 yil.
3. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent-O'zbekiston – 2009 yil.
4. Karimov. I.A. Barkamol avlod orzusi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2000 yil.
5. Haydarov K.X. Hojimetov K.X. O'zbekiston o'simliklari Toshkent "O'qituvchi" 1992 yil.
6. Paratov O'., Shermatov G. O'simliklarni muhofaza qilish umumxalq ishi Toshkent "Fan" 1991 yil.
7. Zikiryaev A. Biologiyadan ruscha o'zbekcha izohli lug'at. Toshkent Qomus bosh tahririyati. 1993 yil.
8. Mustafaev S. Xolmurodov A. "O'simliklar biologiyasi" Toshkent "O'qituvchi" 1992 yil.
9. Flora Uzbekistana – 1 U1. T. Toshkent 1941 – 1965.
10. Babushken A.N. Agrokaissaticheskii sprovochnik po O'zbekiskiy SSSR. Izd.1957.
11. Xolmatov X.X. Xabibov Z.X. Olimxo'jaeva N.Z. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari. Toshkent Ibn Sino nashryoti 1991.
12. Xoxinotov K. Alloyorov M. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza etish.
13. Kraskaya Kniga O'zbekistana 2 tom. Toshkent O'zbekiston SSSr FAN 1994.
14. Xolmurodov A. va bosh "O'zbekiston janubida" "Qizil Kitobga" kiritilgan o'simliklar muhofazasi oid. Qarshi 1991.
15. Butkov A.YA. Rastitel'nostigor xodja-Gurgur-ata. Toshkent 1938 yil.

16. Grognitov I.I. Pyatova A.D. Aliksandrova E.I. Rastitel'nos' Kashkadarvinskaya oblast' Gr. SATU 1958.
17. DJumaev.T. Gory Uzbekistana Toshkent 1989.
18. Zokirov P.Z. Klassifikatsiya rastitel'nosti sredney Azii. Uzb biol. Jurnal.1989.
19. Kuryashev S.N. Todovvi SHaxrisabza. T. 1–2 T 1950.
20. Kurasnaya Kniga Dikarstushie xidy flora SSSR nujdoyushieaya v oxrona L 1975.
21. Nabiev I.M. Botanika atlas lug'ati. Toshkent 1969.
22. Operdelitelv rastiniy sredniy Azii Toshkent Fan 1–10ta.
23. Tratov U. Odilov T. Uzbekiston yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o'zbekcha nomlari Toshkent 1995.
24. Xo'jamqulov B. Hisor davlat qo'riqxona o'simliklari. Qarshi 1994.
25. Xo'jamqulov B. Archalar yashil boyligimiz "Ekologichiskix vesnix O'zbekistana"1997.
26. Xo'jamqulov B. Sostoyanie argovnikov na yushnyx otrogov Gissorskogo xrebt "Tafakkur mevalari" tuplami Qarshi 1991.
27. Shaymatova G. "Qashqadaryo daryosi o'ng sohili soylarining florasi va o'simliklar qoplamlari" B.M.I. qarshi 2011 yil
28. Alibekov L. "O'zbekiston qo'riqxonalari va Landshaftlarini muhofaza etish". Toshkent 1987.
29. Bogdanov O. "Zapovedniki O'zbekistana" Toshkent 1985.
30. Zapovedniki territorii Uzbekistana. Toshkent 1981.
31. <http://www.kvadrat.webstolica.ru/stati/gennaja-inzheneriya/>"t"-blank"
www.search.re.uz
www.ietcountcil.gov.ru
www.ref.uz

Mundarija

Kirish.	3
I Bob. Qashqadaryo havzasining jinnidaryo, oqsuvdaryosi, katta o'radaryo, yakkabog'daryo va g'uzordaryolarning tabiati haqida fizgeografik tasnif.	7
1.1 Tanxozdaryoning tabiiy geografik o'rni va sharoiti.	12
1.2. Iqlimi va tuprog'lari.	17
II Bob. Tanxozdaryosining o'simliklar qoplamini va florasini.	19
2.1. Tanxozdaryo o'simliklar qoplamini o'rganish tarixi (adabiyotlar sharhi).	19
2.2. Tanxozdaryo o'simliklar qoplamida tarqalgan turlarning sistematik tahlili.	21
2.3 Tanxozdaryosi o'simliklar qoplamida va florasida uchraydigan turlarning ayrim vakillariga bioekologik tasnif.	31
Xulosa.	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	71